2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 199 (1798), 2026-yil 25-sentabr, juma

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news

ANDIJONDA SALOHIYATNI NATIJAGA AYLANTIRISH DAVRI: SARMOYA, TEXNOLOGIYA VA YUQORI DAROMADLI ISH

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev raisligida Andijon viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash va aholi daromadlarini oshirish masalalari bo‘yicha yig‘ilish o‘tkazildi.





Andijonliklar 24-sentabr tongini kuzning yoqimli havosi — baraka va musaffolik timsoli bo‘lgan yomg‘ir bilan kutib oldi. Ming yillarki, mayin yomg‘ir yorug‘lik, baraka va mo‘l hosil ramzi bo‘lgan. Mamlakatimiz rahbari raisligida o‘tkazilgan yig‘ilishda mazkur ramziy ishora yana bir bor tasdig‘ini topdi.

Yig‘ilishda hududni izchil iqtisodiy yuksaltirish, ijtimoiy birdamlik va o‘sishga xizmat qiladigan taklif hamda tashabbuslar ilgari surildi. To‘g‘ri, keyingi yillarda viloyatda barcha sohalar bo‘yicha ko‘plab yutuqlarga erishildi. Masalan, shu yilning birinchi yarmida viloyat iqtisodiyoti 8,8 foiz o‘sgan. Ayni ko‘rsatkich sanoatda 9,2 foizni, xizmatlar sohasida 16,1 foizni tashkil etgan. Albatta, yutuqlardan quvonishga haqlimiz. Biroq hayot bir joyda to‘xtab turmasligi ham ayni haqiqat. Shu bois, yangilanishlar raqamlar bilan emas, har bir oilaning kundalik hayotiga qanday o‘zgarish olib kirgani bilan baholanadi. Ana shu nuqtayi nazardan, yangi marralar belgilab olindi. Tabiiyki, ularga erishishning aniq rejasi, iqtisodiy-ijtimoiy xaritasi ham ko‘rsatib berildi. Jumladan, yig‘ilishda investitsiyalar hajmini oshirish borasidagi ishlar tahlil qilindi. Bunda kelayotgan sarmoyaning sifati, tarkibi va iqtisodiyotga beradigan samarasiga alohida e’tibor qaratildi. Yaqinda sanoat va tadbirkorlik uchun viloyatda 1000 gektar maydon ajratilgan edi. Yig‘ilishda ushbu imkoniyat Andijonda 7 milliard dollar investitsiya va kamida 70 ming yuqori daromadli ish o‘rniga aylanishi kerakligi ta’kidlandi. Qolaversa, sohadagi ayrim jihatlar tahlil etilib, qator vazifalar belgilandi. Jumladan, sarmoyalarni yuqori qo‘shilgan qiymat, zamonaviy texnologiya va barqaror ish o‘rinlari ochadigan yo‘nalishlarga jalb qilish zarurligi ta’kidlandi.

Asakada avtomobilsozlik bo‘yicha 30 yillik tajriba shakllangan. Mana shu tajriba asosida o‘z texnologiyalarini yaratishga o‘tish vazifasi qo‘yildi. Shu maqsadda “Asaka muhandislik vodiysi” tashkil etiladi. Unda dasturiy mahsulotlar, elektronika, elektromexanika va muhandislik xizmatlari zanjiri yo‘lga qo‘yiladi. Mana shu omilning o‘ziyoq sohalarni odatiy ish tartibidan chiqarib, global iqtisodiy tebranishlarga chidamli tizimga o‘tilayotganini anglatadi. Bunday tizim esa yosh, bilimdon va yuqori salohiyatli kadrlar sinfi bilan barqaror ahamiyat kasb etadi. Bu borada ham muhim qadam tashlanmoqda. Jumladan, hozir viloyatda muhandislik, energetika, sanoat va axborot texnologiyalari yo‘nalishlarida tahsil olayotgan 10 ming talaba bor. Yig‘ilishda ularning g‘oyalarini tayyor mahsulotga aylantiradigan tadqiqot va ishlanmalar markazlarini rivojlantirish zarurligi ko‘rsatib o‘tildi.

Ta’kidlanganidek, viloyatda yer va tabiiy boyliklar cheklangan. Ana shu cheklangan imkoniyatni katta salohiyatga aylantirish mumkin. Ayniqsa, andijonliklar kabi harakatchan insonlar, bu yerdagi kuchli tadbirkorlik muhiti, ko‘p sonli yoshlar hududning kuchli jihatidir. Bularning barchasini hisobga olib, endi viloyatda investitsiya natijadorligi har bir kvadrat metr maydonda yaratilgan qo‘shilgan qiymat bilan baholanishi belgilandi. Mazkur vazifa uchun ham davlatimiz rahbarining o‘zi aniq reja taqdim etdi. Unga ko‘ra, Qoraqalpog‘iston tajribasi asosida qolgan 13 hudud uchun ham loyihalar menejeri lavozimi joriy etiladi. Andijondagi loyihalar menejeri viloyatning yangi investitsiya modelini yaratishga mas’ul bo‘ladi. Buning uchun sun’iy intellekt yordamida har bir tumanning sanoat, xizmat ko‘rsatish va qishloq xo‘jaligidagi imkoniyati baholanadi. Tahlil natijasiga ko‘ra, yuqori qo‘shilgan qiymat yaratish imkoni bo‘lgan sohalar aniqlab olinadi. Shu asosda xorij sarmoyasini jalb qilish rejasi ishlab chiqiladi.

Xalqni rozi qilish siyosati ustuvor bo‘lgan mamlakatda ijtimoiy masalalarga iqtisodiy samarador yechimlar taklif etiladi. Shu ma’noda, yangi O‘zbekistonda ish o‘rinlari ochishga katta e’tibor qaratilmoqda. Andijonda ham bu borada yana bir tashabbus ilgari surildi. Ya’ni yirik korxonalar faoliyati kengaytiriladi. Ular samarador ishlashi uchun texnologik modernizatsiya qilinadi. Shu orqali yangi ish o‘rinlari ochish chorasi ko‘riladi. Kelgusi yili viloyatda kamida 10 foiz iqtisodiy o‘sishni ta’minlash vazifasi qo‘yildi. Bunda 5 milliard dollar investitsiya jalb qilinib, eksport 1,5 milliard dollarga yetkaziladi.

Yurtimizda har bir hududning imkoniyati, ijtimoiy holatidan kelib chiqib, drayver sohalar belgilab olinadi. Ayni paytda barcha sohada rivojlanishga erishish uchun muayyan imtiyoz va imkoniyatlar taqdim etiladi. Bu, ayniqsa, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda qo‘l kelmoqda. Ayni maqsad tufayli Andijonda yirik chorvachilik, parrandachilik va baliqchilik komplekslarini ko‘paytirish vazifalari belgilandi. Masalan, Ulug‘nordagi paxtadan ozuqa ekinlariga o‘tkazilgan 5000 gektar maydonda kamida 10 ming bosh qoramol boqish mumkin. Dala chetidagi yerdan samarali foydalanish orqali ham chorvachilikni kengaytirish imkoni bor. Yil yakunigacha shunday maydonlarning kamida 200 gektarida chorva boqish uchun sharoit yaratish, Ulug‘nor va Bo‘stonda yirik chorvachilik komplekslari loyihasini ishlab chiqish vazifasi topshirildi. Shuningdek, Baliqchi tajribasi asosida Jalaquduqda 4 ta, Xo‘jaobodda 3 ta tovuq go‘shti kompleksi loyihasini boshlash vazifasi qo‘yildi. Qolaversa, Ulug‘nordagi 1200 gektar maydonda Baliqchi tumani tajribasi asosida baliqchilik klasteri tashkil etiladi.

Islohotlar izchilligi ta’minlanishi uchun imkoniyat axtarish emas, bor salohiyatni yuqori samaraga olib chiqish talab etiladi. Viloyatda bu boradagi yangilanishlar barqaror davom ettiriladi. Ya’ni Jalaquduq, Marhamat, Asaka va Andijon tumanlaridagi adirliklar iqtisodiy aylanmaga kiritiladi. Buning uchun alohida “Agrostar” kompaniyasi tashkil etilib, bahorgacha 4-5 ming gektar maydonga suv chiqariladi. Shu yerlarda shaftoli, gilos, o‘rik, olxo‘ri daraxtlaridan iborat sanoatlashgan bog‘lar barpo etish harakati boshlanadi. Bog‘lar uch yil parvarishlanib, aholiga tayyor holda taklif qilinadi. Ya’ni hozir shunchaki adirlik bo‘lgan joy katta mablag‘ evaziga o‘zlashtiriladi. Katta bog‘ yaratilib, aholiga daromad olish uchun beriladi. Ana shuning o‘ziyoq O‘zbekiston tom ma’noda ijtimoiy davlat vazifasini yuqori darajada bajarayotganini anglatadi.

Davomi 2-betda

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati suratlari.



Aleksandr KVASNEVSKIY:

“O‘ZBEKISTONNING SO‘NGGI 10 YILLIKDAGI O‘ZGARISHLARI KELAJAKKA MUSTAHKAM POYDEVORDIR”

Polshaning sobiq Prezidenti, “Amicus Europae” jamg‘armasi asoschisi va boshqaruv kengashi raisi Aleksandr Kvasnevskiy O‘zbekistonning so‘nggi 10 yillikdagi keng ko‘lamli islohotlari, natijalari va yutuqlari haqida “Dunyo” axborot agentligiga intervyu berib, mamlakatimiz xalqiga samimiy tabrik va ezgu tilaklarini yo‘lladi.



— Bu yil yangi O‘zbekistonda islohotlar boshlanganiga 10 yil bo‘ldi. Ushbu davr mobaynida amalga oshirilgan ishlar va erishilgan yutuqlarni qanday baholaysiz?

— Mamlakatingizda ro‘y bergan o‘zgarishlar har qanday kishida katta taassurot qoldiradi. Islohotlar keng ko‘lamda kechmoqda. Eng muhimi, ular geosiyosiy vaziyat nuqtayi nazaridan oson bo‘lmagan davrda hayotga tatbiq etilmoqda. Shunday murakkab vaziyatga qaramay, Prezidentingiz va xalqingizning islohotlarni izchil davom ettirish borasidagi qat’iyati yuksak hurmatga sazovor.

Yangi O‘zbekiston yangi Konstitutsiya qabul qilgani juda muhim voqea bo‘ldi. Bu ko‘plab islohot va loyihalarni amalga oshirish uchun mustahkam huquqiy asos yaratadi. Menimcha, yangi Konstitutsiya jamiyat faolligini oshiradi, fuqarolarga o‘z hayoti va mamlakat iqtisodiy faoliyatiga yanada ko‘proq ta’sir ko‘rsatish imkonini beradi.

O‘zbekiston bugungi jahondagi murakkab vaziyatga qaramay, oqilona va muvozanatli tashqi siyosat yuritmoqda. Xususan, Rossiya va Xitoy bilan yaxshi aloqalar yo‘lga qo‘yilgan, Hindiston, Koreya Respublikasi, Yevropa Ittifoqi va boshqa davlatlar bilan ham munosabatlar izchil rivojlanib bormoqda.

Davomi 3-betda

Xalqaro e’tirof

JAHON BANKI O‘ZBEKISTONDA AHOLINI KAMBAG‘ALLIKDAN CHIQARISH VA FAROVONLIKKA ERISHISH ISLOHOTLARINI YUKSAK BAHOLADI

Dunyo iqtisodiyoti bugun katta o‘zgarishlar davrini boshdan kechirmoqda. Yangi texnologiyalar ishlab chiqarish va mehnat bozorining qiyofasini o‘zgartirayotgan, inflyatsiya aholi xarajatiga bosim o‘tkazayotgan, geosiyosiy ziddiyatlar va ekologik vaziyat millionlab odamlarning daromad manbalariga ta’sir qilayotgan sharoitda kambag‘allik masalasi yanada murakkab tus oldi. Bir mamlakatda ish o‘rni qisqarishi, boshqasida oziq-ovqat narxining oshishi, yana bir hududda qurg‘oqchilik tufayli daromadning kamayishi o‘zaro bog‘langan jahon iqtisodiyoti orqali umumiy muammoga aylanmoqda.



Jahon iqtisodiyotida kambag‘allik masalasi yanada murakkab tus olayotgan bir paytda O‘zbekistonda so‘nggi yillarda kuzatilayotgan o‘zgarishlar alohida e’tiborga molik. Inflyatsiya, mehnat bozoridagi transformatsiya, geosiyosiy beqarorlik va aholi daromadlariga ta’sir qilayotgan global omillar sharoitida kambag‘allik darajasi pasayishi iqtisodiy siyosat natijalarini baholashda muhim mezonlardan biriga aylanmoqda.

Davomi 3-betda

Tahlillarga ko‘ra, 30 ta ma’muriy binoni ko‘chirish orqali biznes uchun 13 gektar yer va 70 ming kvadrat metr joy bo‘shaydi. Buning hisobiga qo‘shimcha 1 milliard dollar investitsiya jalb qilish mumkin. Muhimi, 20 ming ish o‘rni ochish imkoniyati paydo bo‘ladi.

YANGI O‘ZBEKISTON

2026-yil 25-sentabr, 199-son

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news

ANDIJONDA SALOHIYATNI NATIJAGA AYLANTIRISH DAVRI: SARMOYA, TEXNOLOGIYA VA YUQORI DAROMADLI ISH

Boshlanishi 1-betda

Muhimi, bog‘ hosilidan yuqori daromad olish uchun ham aniq reja bor. Ya’ni kichik uskunalar aholiga lizingga beriladi. Shu orqali tuman brendlari yaratilib, ishlab chiqarishni hozirgi 16 foizdan 30 foizga yetkazish mumkin bo‘ladi.

Jahon bozoridagi global o‘zgarishlar, tebranishlar ko‘plab sohalarga ta’sir o‘tkazmoqda. Jumladan, hozir tashqi bozorda paxtaga talab pasayib, eksportda logistika xarajati oshib boryapti. Bunday sharoitda qo‘shilgan qiymat yaratish har qachongidan ham muhim. Shu bois, fermerlar, klasterlar va tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab-quvvatlash chorasi e’lon qilindi. Xususan, paxtani birjada sotgan fermerga ham, uni sotib olgan klasterga ham har tonna uchun 500 ming so‘mdan subsidiya beriladi. O‘z yerida paxta yetishtirgan klasterlar esa gektariga 1,5 million so‘mdan subsidiya oladi. Tayyor mahsulot eksportchilarining kredit foizidan bir qismini uch yil davomida kompensatsiya qilish bo‘yicha hisob-kitoblar kiritish topshirildi. Marketpleyslar orqali sotilgan mahsulot qiymatining bir qismini qaytarish yuzasidan ham takliflar tayyorlanadi.

Ko‘p ish o‘rni ochayotgan sanoat korxonalari uchun yangi rag‘batlantirish choralari belgilandi. Unga ko‘ra, kamida 1000 nafar ishchisi bo‘lgan korxonalarning xodimlarni o‘qitish, malakasini oshirish hamda ish joyiga olib kelish va olib ketishdagi transport xarajatlarining 50 foizi kompensatsiya qilinadi. Bunday korxonalarda kamida besh yil ishlagan xodimlar farzandlarining OTMda o‘qishi uchun to‘lov-shartnoma puli qoplab beriladi. Ish o‘rinlari soni 1000 ga yaqinlashayotgan korxonalar uchun ham alohida grantlar ajratiladi. Ayni yo‘nalishda Andijonning o‘ziga 20 million dollar beriladi.

Viloyat vodiydagi muhandis kadrlar markaziga aylantiriladi. Hozir hududdagi 12 ta OTMda 95 ming talaba, 59 ta texnikumda 60 ming o‘quvchi tahsil olmoqda. Bu salohiyatni ishlab chiqarish bilan uzviy bog‘lash zarurligi ta’kidlandi. Oliygoh va texnikumlarning amaliy kafedralarini 46 ta sanoat zonasi va 56 ta yirik korxona hududiga ko‘chirish, yengil konstruksiyali o‘quv xonalarini tashkil etib, yil yakunigacha dual ta’limni kamida 80 foizga yetkazish topshirildi. Shuningdek, Andijon texnika instituti transformatsiya qilinadi. Xorijlik menejer va professor-o‘qituvchilar jalb qilinib, ta’lim dasturlari va yo‘nalishlari yangilanadi.

Yana bir muhim yo‘nalish — elektr energiyasi ishlab chiqarish. Sanoat, umuman, iqtisodiy tarmoqlar o‘sishi energiyaga talabni oshiradi. Yig‘ilishda viloyat hududidan o‘tgan daryo va kanallar bu borada katta zaxira manbai ekani ta’kidlandi. Hozirning o‘zida umumiy quvvati 44 megavatt bo‘lgan kichik va mikro GESlar qurishga 400 talabgor bor. GES turbinalarini ishlab chiqarish ham viloyatning o‘zida yo‘lga qo‘yilgan. Ikki yillik dastur asosida mikro GESlarni tayyor holda qurib, tadbirkorlarga lizingga bera boshlash, qulay moliyaviy mexanizmlarni joriy etish topshirildi. Mamlakatimizda ariq va kanallar betonlanmoqda. Ana shu jarayonda samarali foydalanib, viloyatdagi kanallarning 81 kilometrida GESlar kaskadi quriladi.

Shuningdek, yig‘ilishda zamonaviy xizmatlarni kengaytirish borasidagi vazifalar ham ko‘rib chiqildi. Buning uchun Andijondagi davlat tashkilotlari Bobur shahriga ko‘chiriladi. Ularning o‘rnida bo‘shaydigan bino va maydonlarda savdo hamda xizmat ko‘rsatish sohasi rivojlantiriladi. Tahlillarga ko‘ra, 30 ta ma’muriy binoni ko‘chirish orqali biznes uchun 13 gektar yer va 70 ming kvadrat metr joy bo‘shaydi. Buning hisobiga qo‘shimcha 1 milliard dollar investitsiya jalb qilish mumkin. Muhimi, 20 ming ish o‘rni ochish imkoniyati paydo bo‘ladi. Shundan kelib chiqib, Asaka, Shahrixon, Qo‘rg‘ontepa markazlari va Xonobod shahrini ham yuqori daromadli biznes hududiga aylantirish vazifasi qo‘yildi.

Erkinlik bor joyda iqtisodiyot tez rivoj topadi. O‘zbekistonda esa ana shu erkinlik bilan birga qator imtiyoz va imkoniyatlar ham berilyapti. Muhimi, soha doim isloh qilib borilmoqda. Masalan, yig‘ilishda banklar faoliyatiga yangicha yondashuv talab qilinayotgani ta’kidlandi. Davlat banklari an’anaviy garov va bir xil standart shartlar bilan cheklanmay, mijozlar biznesini o‘stirish tamoyili asosida ishlashi zarur. Shu bois, real pul oqimi, buyurtma va shartnomalar, tovar aylanmasi hamda biznes zanjiriga asoslangan moliyaviy mahsulotlar keng joriy qilinadi. Kichik tadbirkorlarning yirik buyurtmachi bilan uzoq muddatli shartnomasi kredit garovi sifatida qabul qilinadi. Endi 500 million so‘mgacha loyihalarni kreditlashda biznes-reja talab etilmaydi. Bunda mablag‘ pul oqimiga qarab ajratiladi. Eksportbop mahsulot uchun xomashyo sotib olish kreditida sug‘urta polisining o‘zi garov sifatida yetarli bo‘ladi.

Shu bilan birga, soliq idoralari ham tadbirkorlar faoliyatini kengaytirish va ish o‘rinlarini saqlab qolishga ko‘maklashadi. Ya’ni daromadi yoki ish o‘rni kamaygan korxonaga mahalla soliqchisi borib, muammoni o‘rganadi. Hokim yordamchisi va mahalla bankiri bilan birga soliq to‘lovini kechiktirish, kredit muddatini uzaytirish, aylanma mablag‘, bozor yoki eksportga ko‘maklashish bo‘yicha tuman shtabiga taklif kiritadi. Shu orqali tadbirkorga ko‘mak berilib, iqtisodiy barqarorlik saqlanadi. Barcha sohada adolatli tizim bo‘lgani kabi bu jarayonda ham har bir biznesning daromadga kirish davri va xususiyati inobatga olinadi. Yoshlar bandligi mahalla soliqchilari faoliyatini baholash va mehnatiga haq to‘lashda samaradorlik mezoni qilib belgilanadi.

Yig‘ilishda tadbirkorlarning sudda ko‘rilayotgan ishlarini tez va samarali tashkil qilish zarurligi ta’kidlandi. Jumladan, dalillar yetarli bo‘lgan ishlar bo‘yicha jarayonlarni soddalashtirish va muddatlarni qisqartirish mumkinligi qayd etildi. Oliy sud, Biznes-ombudsman va Adliya vazirligi Andijonda tadbirkorlarning murojaatlarini eshitib, masalalariga yechim topishi kerakligi ko‘rsatib o‘tildi. Bir oyda protsessual qonunchilik tahlil qilinib, qaysi ishlarni soddalashtirilgan tartibda ko‘rish va muddatlarni qisqartirish mumkinligi yuzasidan takliflar ishlab chiqiladi.

Iqtisodiy-ijtimoiy yuksalishning muhim omillaridan biri jamoat transporti va logistika imkoniyatini rivojlantirishdir. Bu borada ham sohani kengaytirish bo‘yicha yirik loyihalar belgilandi. Xususan, “Xitoy — Qirg‘iziston — O‘zbekiston” temir yo‘li hisobiga yuk tashish hajmini 10 karra oshirib, yiliga 15 million tonnaga yetkazish imkoni paydo bo‘ladi. Shu munosabat bilan yil yakunigacha Qo‘rg‘ontepa va Xonoboddagi 300 gektar maydonda 600 million dollarlik logistika kompleksi loyihasini boshlash topshirildi.

Qirg‘iziston bilan “Do‘stlik” postiga nisbatan ikki barobar katta “Keskanyor” chegara postini ochish bo‘yicha kelishuvga erishilgani qayd etildi. Uch oyda uning loyihasini ishlab chiqib, qurilishni boshlash vazifasi qo‘yildi. Bu yuk tashish hajmini 2-3 karra oshirish va muddatini bir haftaga qisqartirishga xizmat qiladi. Yangi transport oqimiga mos ravishda 78 kilometrli Xonobod — Andijon pulli avtomobil yo‘lini loyihalashga kirishiladi. Kelgusi yili Toshkent — Andijon pulli avtomobil yo‘lini qurish bo‘yicha amaliy ishlar boshlanadi.

Bobur shahri Andijon viloyati aholisi uchun haqiqatan ham sira kutilmagan, eng yirik va hayotiy loyiha bo‘ldi. To‘rt ming gektar adirda barpo etilayotgan shahardagi qulay uylarga 25 ming odam ko‘chib o‘tdi. Yana 200 ming kishiga mo‘ljallangan 800 ta ko‘p qavatli uy-joy qurilishi boshlandi. Bu andijonliklarga qulay muhitda, sog‘lom ijtimoiy sharoitda yashash imkonini bermoqda. Bu yerda savdo komplekslari, biznes markazlari, mehmonxonalar, xususiy ta’lim, tibbiyot va sport obyektlarini barpo etish istagidagi tadbirkorlar qo‘llab-quvvatlanadi. Bunday obyektlarda investitsiyaning qaytish muddati uzoq. Shu bois, yerning boshlang‘ich narxi uy-joy qurilishi uchun ajratiladigan yernikiga nisbatan ikki barobar arzon etib belgilanadi.

Viloyat ahlining uzog‘ini yaqin qiladigan yana bir loyiha — Andijon shahridagi Bobur shohko‘chasida ko‘prik ishga tushirildi. Ushbu tajriba keng joriy etilib, kelgusi yili Milliy tiklanish va Navoiy, O‘zbekiston va Bobur, Amir Temur va Yangi aylanma yo‘li ko‘chalari kesishmasida yana uchta yirik yo‘l o‘tkazgich quriladi. Asaka tumanining markazini aylanib o‘tuvchi ko‘prik ham ishga tushiriladi.

Shuningdek, yig‘ilishda viloyatda ichimlik suv va kanalizatsiya xizmatlarini yaxshilash borasidagi ishlar izchil davom etishi qayd etildi. Xususan, bir million odamning suv ta’minotini yaxshilash uchun kelgusi yildan Xonobod — Andijon magistral quvurining ikkinchi tarmog‘i yotqizilishi boshlanadi. Andijon shahrida kanalizatsiya tarmog‘ining 9 kilometri rekonstruksiya qilinmoqda. Qolgan 15 kilometrini yangilash uchun ham mablag‘ ajratiladi. Oltinko‘ldagi oqova suv tozalash inshootining quvvati ikki barobar oshiriladi.

Ustuvor yana bir vazifa xotin-qizlar bandligini ta’minlashdir. Buning uchun ham viloyatda alohida moliyaviy va tashkiliy imkoniyatlar yaratiladi. Andijonda ishlash istagidagi 3000 ayol bola parvarishi bilan band. Shu bois, oilaviy bog‘cha ochish niyatidagi tadbirkorlar takliflarini qo‘llab-quvvatlash borasida ko‘rsatma berildi. Umuman, Andijonda ayollarni ish bilan ta’minlash uchun alohida jamg‘arma tashkil etilib, unga 20 million dollar ajratiladi.

Qolaversa, yig‘ilishda jamoat xavfsizligini ta’minlash va kiberjinoyatlarning oldini olishda raqamli texnologiyalardan keng foydalanish borasida ham muhim vazifalar belgilandi. Jumladan, Andijon shahri, Shahrixon va Andijon tumanlari ichki ishlar idoralari rahbarlariga raqamlashtirish hamda kiberjinoyatlarga qarshi kurashish bo‘yicha o‘rinbosar lavozimi ta’sis etiladi. Ular ko‘chalardagi kameralar ma’lumotini sun’iy intellekt orqali tahlil qiladi. Shu asosda bezorilik, o‘g‘rilik va yo‘l-transport hodisalarining oldini olish bo‘yicha yechimlar ishlab chiqadi. Kiberhujumlardan himoyalanish dasturi ishlab chiqilib, budjet tashkilotlari xodimlari, o‘quvchi va talabalar, pensionerlarning bu boradagi bilimi oshiriladi. Yil yakunigacha ushbu tajribani boshqa hududlarda ham joriy etish topshirildi.

Davlatimiz rahbari mahallalar obodligi har bir insonning mehnati va daxldorligi bilan bog‘liqligini ta’kidladi. Aslida, mahalla tizimi o‘zini o‘zi boshqarish vazifasi tufayli asrlar osha yashab kelmoqda. Ajdodlarimiz orasidan tabiiy tanlangan oqsoqollar elga boshchilik qilib, yoshlarni to‘g‘ri yo‘lga solgan. Ya’ni davlat boshqaruvchilari safidan tashqarida bo‘lgan oqsoqollar jamiyat birdamligi yo‘lida faoliyat yuritgan.

Yig‘ilishda faollar va nuroniylar ko‘chalarni obod qilish, ariqlarni tozalash, xonadonlar atrofiga daraxt va gullar ekishda bosh-qosh bo‘lishi muhimligi qayd etildi. Bu yoshlarda ham o‘z mahallasi, ko‘chasi va yurtiga mehr hamda mas’uliyatni kuchaytiradi. Kelgusi yili Andijonda 100 ta mahallaga “Yangi O‘zbekiston qiyofasi”ni olib kirish rejasini tayyorlash topshirildi. Mamlakatimiz yetakchisi andijonliklarga xos tashabbuskorlik, mehnatsevarlik va natijaga intilish ushbu maqsadlarga erishishda mustahkam tayanch bo‘lishiga ishonch bildirdi.

Yig‘ilish yakunida mutasaddilarning axboroti tinglandi, andijonliklar bilan muloqot qilindi.

Shu bilan davlatimiz rahbarining Andijon viloyatiga tashrifi yakunlandi.

Dilshod ULUG‘MURODOV,
Boboravshan G‘OZIDDINOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbirlari

HAYOTDAN ROZI BO‘LIB YASHASH SURURI

Aks sado

Davlatimiz rahbarining hududlardagi o‘zgarishlar, aholi hayoti va odamlarni o‘ylantirayotgan masalalar bilan yaqindan tanishish, istiqboldagi ustuvor vazifalarni belgilab berish maqsadida viloyatlarga tashrif buyurishi yaxshi an’anaga aylandi. Har bir tashrif hudud taraqqiyotiga yangi sur’at bag‘ishlab, yirik loyihalar, bunyodkorlik va yaratuvchanlik ishlariga keng yo‘l ochmoqda.



Prezidentimizning Andijon viloyatiga navbatdagi tashrifi ham ana shunday ko‘tarinki ruhda o‘tdi. Uzoq kutilgan tashrif andijonliklarning kuchiga kuch, g‘ayratiga g‘ayrat qo‘shib, ularni yangi marralar sari ruhlantirdi. Zero, davlatimiz rahbari qayerga bormasin, kim bilan muloqot qilmasin, avvalo, inson manfaati, odamlarning dard-u tashvishi, orzu-intilishlariga alohida e’tibor qaratdi. Samimiy muloqotlarda xalqimizga yuksak mehr va e’tibor yaqqol namoyon bo‘ldi.

Mamlakatimiz yetakchisining joylardagi uchrashuvlari, aholi bilan samimiy muloqotlari, yangi loyihalar taqdimotida bildirgan fikr va tashabbuslarini vodiy ahli katta qiziqish bilan kuzatdi. Men ham Andijon farzandi sifatida mazkur tadbirlarda bevosita ishtirok etib, bu tarixiy jarayonlarga guvoh bo‘lganimdan mamnunman. Ayniqsa, odamlar kayfiyatidagi ko‘tarinkilik, ularning ertangi kunga ishonchi, yangi tashabbus va loyihalarga bildirilayotgan qiziqish bugun Andijonda kechayotgan yangilanishlar xalq hayoti va tafakkurida ham chuqur aks etayotganini yaqqol ko‘rsatib berdi.

Viloyatda kechayotgan o‘zgarish va yangilanishlarga nazar tashlar ekansiz, qisqa davr mobaynida amalga oshirilgan ishlar ko‘lamini his qilasiz. Keng qamrovli islohotlar natijasida nafaqat iqtisodiyot va infratuzilma, balki odamlar dunyoqarashi, turmush tarzi va ertangi kunga ishonchi ham o‘zgarmoqda.

Yillar davomida aholini qiynab kelgan ko‘plab masalalarga yechim topildi. Yangidan yangi korxonalar tashkil etildi, ish o‘rinlari ko‘paydi, tadbirkorlik uchun imkoniyatlar kengaydi, mahalla va qishloqlar qiyofasi tubdan o‘zgardi.

So‘nggi o‘n yilda viloyatga respublika budjetidan 20 trillion so‘m, banklar tomonidan tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash uchun 90 trillion so‘m yo‘naltirilgani, birgina joriy yilda aholi farovonligini oshirish maqsadida 6 trillion so‘m ajratilgani bu boradagi ishlar ko‘lamini yaqqol ko‘rsatadi. Ushbu mablag‘lar yangi ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish, tadbirkorlikni rivojlantirish, qo‘shimcha ish o‘rinlari yaratishga xizmat qilmoqda.

Faol islohotlar samarasi viloyatning iqtisodiy ko‘rsatkichlarida yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Joriy yilning birinchi yarmida hudud iqtisodiyoti 8,8 foiz, sanoat 9,2 foiz, xizmatlar sohasi 16,1 foiz, investitsiya hajmi esa 8,9 foiz o‘sdi. Bu raqamlar ortida, eng avvalo, yangi korxonalar, yangi ish o‘rinlari, yangi daromad manbalari va odamlarning hayot sifatidagi ijobiy o‘zgarishlar turibdi.

Bugun qaysi sohaga qaramang, yangilanish va bunyodkorlik ko‘zga tashlanadi. Yangi korxonalar, zamonaviy infratuzilma obyektlari, xizmat ko‘rsatish sohasidagi o‘zgarishlar va obodonchilik ishlari nafaqat andijonliklar, balki viloyatga kelayotgan mehmonlarda ham katta taassurot qoldirmoqda.

Andijon xalqaro aeroportidagi keng ko‘lamli yangilanishlar buning yorqin namunasidir. Bir paytlar imkoniyatlari nisbatan cheklangan aeroport bugun zamonaviy infratuzilmaga ega yirik transport maskaniga aylanmoqda.

Aeroport majmuasini rekonstruksiya qilish loyihasining umumiy qiymati 1,1 trillion so‘mni tashkil etib, birinchi bosqichda infratuzilma tubdan yangilandi. Uchish-qo‘nish yo‘lagi 3,3 kilometrgacha uzaytirilib, kengligi 60 metr bo‘lgan yangi 4E toifali yo‘lak barpo etildi. Bu esa yirik havo kemalarini qabul qilish imkoniyatini sezilarli darajada oshiradi.

Prezidentimiz viloyatga tashrifini aynan ushbu yirik obyektdagi bunyodkorlik ishlari bilan tanishishdan boshlagani bejiz emas. Bugun zamonaviy transport infratuzilmasini rivojlantirish, aholi va mehmonlar uchun munosib hamda qulay sharoit yaratish muhim yo‘nalishlardan biriga aylangan. Bunday loyihalar hududning nafaqat transport, balki iqtisodiy, sayyohlik va investitsiyaviy salohiyatini ham yuksaltiradi.

Davlatimiz rahbari tomonidan zamonaviy terminal binosini belgilangan muddatda va sifatli qurib bitkazish bo‘yicha berilgan vazifalar yo‘lovchilarga jahon standartlari darajasida xizmat ko‘rsatish imkoniyatini kengaytiradi. O‘z navbatida, viloyatning transport-logistika imkoniyatlarini yanada rivojlantirishga yangi turtki beradi. Bu aholi va mehmonlar uchun qo‘shimcha qulayliklar ham yaratib, Andijonning iqtisodiy va sayyohlik jozibadorligini yanada oshiradi.

So‘nggi yillarda viloyatda tadbirkorlik va investitsiya faoliyati ham jadal rivojlanmoqda. Biznes uchun yaratilayotgan qulay muhit sanoat tarmoqlarini kengaytirish, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish va aholi bandligini ta’minlashda muhim omil bo‘lyapti.

Tashrif doirasida Prezidentimizning yangi investitsiya loyihalarini ishga tushirish va ularning qurilishiga start berish marosimida ishtirok etgani hudud iqtisodiyoti uchun katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Umumiy qiymati 9 milliard 400 million dollar bo‘lgan 206 ta investitsiya loyihasiga start berilgani mamlakatimizdagi keng ko‘lamli iqtisodiy yangilanishlarning Andijondagi amaliy ifodasidir. Bu shunchaki raqamlar emas. Ularning ortida yangi korxonalar, zamonaviy ishlab chiqarish quvvatlari, ilg‘or texnologiyalar, minglab ish o‘rinlari va eng muhimi, odamlar daromadini oshirishga qaratilgan ulkan imkoniyatlar mujassam.



Odinaxon OTAXONOVA,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati

Mazkur loyihalar energetika, qurilish, to‘qimachilik, mashinasozlik, ta’lim, turizm, logistika, farmatsevtika va sog‘liqni saqlash kabi muhim sohalarni qamrab olgan. Ular viloyatning barcha 16 ta shahar va tumanida amalga oshirilib, hudud iqtisodiy salohiyatini yanada yuksaltirish, yangi ish o‘rinlari yaratish va aholi farovonligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Bugun viloyatda baliqchilik tarmog‘ini izchil rivojlantirish, sohaga zamonaviy texnologiyalar va ilg‘or ishlab chiqarish usullarini keng joriy etishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Baliqchi tumanida faoliyat yuritayotgan “Chinobod real biznes” korxonasining baliq yetishtirish loyihasi ana shunday istiqbolli tashabbuslardan biridir.

Umumiy qiymati 30 milliard so‘m bo‘lgan loyiha doirasida ko‘plab ish o‘rni yaratilgan. Ikki gektar maydonda tashkil etilgan zamonaviy majmuada yiliga 200 tonna baliq go‘shti va 2,5 million dona baliq chavog‘i yetishtiriladi. Korxonaning yillik ishlab chiqarish hajmi 50 milliard so‘mni tashkil etadi.

E’tiborlisi, majmuada intensiv texnologiyalardan ham samarali foydalanilmoqda. Ikki gektar maydonda an’anaviy usuldagi 100 gektar havzada yetishtiriladigan hajmga teng mahsulot olish imkoni yaratilgani yer va suv resurslaridan tejamkorlik bilan foydalanish barobarida ishlab chiqarish samaradorligini ham oshirmoqda.

Korxonada yetishtirilayotgan gulmohi (forel) chavoqlari nafaqat ichki bozor, balki xorijda ham xaridorini topgan. Masalan, mahsulotlar Qirg‘iziston, Tojikiston va Afg‘onistonga eksport qilinmoqda. Asosiysi, mazkur loyiha ishlab chiqarish va eksport hajmini oshirish bilan birga yangi ish o‘rinlari yaratish, aholi bandligi va daromadini ta’minlashga ham xizmat qilayotir.

“So‘nggi o‘n yilda viloyatga respublika budjetidan 20 trillion so‘m, banklar tomonidan tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash uchun 90 trillion so‘m yo‘naltirilgani, birgina joriy yilda aholi farovonligini oshirish maqsadida 6 trillion so‘m ajratilgani bu boradagi ishlar ko‘lamini yaqqol ko‘rsatadi.



Andijon viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash va aholi daromadlarini oshirish masalalari bo‘yicha o‘tkazilgan yig‘ilish esa hududdagi mavjud imkoniyatlarni to‘liq ishga solish, yangi loyihalarni amalga oshirish, eng muhimi, odamlar farovonligini yuksaltirishga yanada kengroq yo‘l ochadi.

Ayniqsa, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash uchun chorvachilik, parrandachilik va baliqchilikda yirik komplekslarni ko‘paytirish bo‘yicha belgilab berilgan vazifalar, avvalo, ichki bozorni sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan barqaror ta’minlash, ishlab chiqarish hajmini oshirish va narxlar barqarorligini saqlashga imkon beradi.

Masalan, Ulug‘norda paxtadan ozuqa ekinlariga o‘tkazilgan 5 ming gektar maydonda kamida 10 ming bosh qoramol boqish mumkin. Dala chetlaridagi yerlardan samarali foydalanish orqali ham chorvachilikni kengaytirsa bo‘ladi. Yil yakunigacha shunday maydonlarning kamida 200 gektarida chorva boqish uchun sharoit yaratilishi, Ulug‘nor va Bo‘stonda yirik chorvachilik komplekslari loyihalari ishlab chiqilishi chorvachilik uchun mustahkam ozuqa bazasini yaratib, sohaning barqaror rivojiga yangi sur’at beradi. Qoramol bosh soni ko‘payishi esa go‘sht va sut mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini oshirib, ichki bozor ta’minotini yaxshilashga xizmat qiladi.

Baliqchida ishga tushirilgan, qiymati 20 million dollar bo‘lgan tovuq go‘shti kompleksi tajribasi asosida Jalaquduqda 4 ta, Xo‘jaobodda 3 ta shunday kompleks ish boshlashi ichki bozorni sifatli tovuq go‘shti bilan barqaror ta’minlash va mahsulot hajmini oshirish barobarida oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlab, hududlarda zamonaviy va samarali ishlab chiqarish tizimini kengaytirishga zamin yaratadi.

Ulug‘nordagi 1200 gektar maydonda Baliqchi tumani tajribasi asosida baliqchilik klasteri tashkil etilishi sohani yangi bosqichga olib chiqish yo‘lidagi muhim qadamlardan biridir. Bu tashabbus zamonaviy usullar asosida baliq yetishtirish hajmini ko‘paytirish, yangi ish o‘rinlari yaratish va aholi uchun barqaror daromad manbalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Har oyning oxirgi haftasida xalq bilan muloqot qilish maqsadida viloyatimiz hududlarida bo‘lib, saylovchilar bilan uchrashuvlar o‘tkazamiz. Ochig‘i, har gal biror o‘zgarish yoki yangilanishning guvohi bo‘lamiz. Oddiy misol, yaqin-yaqingacha yoshlar ish izlab xorijga ketayotgan bo‘lsa, bugun ular oilasi bag‘rida yashab, o‘z mahallasida mehnat qilmoqda, daromad topmoqda.

Prezidentimizning viloyatimizga tashrifi tom ma’noda Andijon tarixida yangi davrni boshlab beradi. Shubhasiz, ushbu tashrifdan so‘ng yuzlab loyihalar amalga oshiriladi, minglab ish o‘rinlari yaratilib, asosiysi, xalqimiz farovonligi yanada yuksaladi. Biz, deputatlar belgilab berilgan vazifalar ijrosini o‘z vaqtida ta’minlashda yanada faol va tashabbuskor bo‘lamiz.







Aleksandr KVASNEVSKIY:

“O‘ZBEKISTONNING SO‘NGGI 10 YILLIKDAGI O‘ZGARISHLARI KELAJAKKA MUSTAHKAM POYDEVORDIR”



> **O‘zbekiston amalga oshirayotgan ishlarni doim yuqori baholab kelganman. Mamlakatning Qozog‘iston va Markaziy Osiyodagi boshqa qo‘shni davlatlar bilan yaxshi munosabatlarini ham alohida qadrlayman. Shuningdek, O‘zbekistonning muvozanatli va barqaror tashqi siyosati to‘g‘ri yo‘nalishda deb hisoblayman.**

Boshlanishi 1-betda

Mamlakatingiz Markaziy Osiyoda faol siyosat yuritmoqda va mintaqada barqarorlik hamda xavfsizlikni ta’minlashga katta hissa qo‘shayotgan yetakchi davlatlardan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston ayni paytda o‘zining eng katta imkoniyatlaridan biri — yosh avlod salohiyatini to‘g‘ri yo‘naltirish va ulardan samarali foydalanishga jiddiy e’tibor qaratmoqda.

O‘zbek jamiyati jahondagi eng yosh jamiyatlardan biridir. Biroq yoshlarning o‘ziga xos ehtiyojlari mavjud. Bu sifatli ta’lim, maktablar, ish o‘rinlari, uy-joy, oila va farzandlar bilan bog‘liq masalalardir. Tabiiyki, bularning barchasi juda keng ko‘lamdagi vazifalarni qamrab oladi.

Shu bilan birga, O‘zbekiston rahbariyatining bu boradagi siyosati juda faol ekanini ko‘rib turibman. Bugun yoshlar mamlakatingizning eng katta kapitali hisoblanadi.

— Sizningcha, oxirgi o‘n yillikdagi izchil o‘zgarishlar xalqaro hamjamiyat, investorlar va xorijiy hamkorlarning O‘zbekistonga ishonchini qay darajada oshirmoqda?

— O‘zbekistonda bo‘lib o‘tgan qator iqtisodiy forumlarda ishtirok etdim. U yerda bildirilgan fikrlar va muhokamalar juda muhim. Chunki biror mamlakatga nisbatan ishonch shakllanishi uchun, avvalo, u davlat samarali boshqarilayotgani, xavfsiz ekani, o‘z majburiyatlarini bajarishi va huquqiy tizimning doimiy ravishda o‘zgarib turmasligiga ishonch bo‘lishi kerak. Ana o‘shanda tadbirkor yoki investor o‘z faoliyatini uzoq muddatga rejalashtirishi mumkin.

O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi, turizm va iqtisodiyotning boshqa yo‘nalishlarida ham katta salohiyatga ega. Mamlakatda yetishtirilayotgan meva va sabzavotlar dunyodagi eng sarxil va sifatli mahsulotlar qatoriga kiradi.

Bugungi zamonaviy jahon iqtisodiyotini belgilab berayotgan sohalarda mamlakatingizning faolligi ham juda muhim. Xususan, raqamli texnologiyalar, “yashil” iqtisodiyot va ekologik muammolarga e’tibor qaratish lozim.

Men anchadan buyon kuzatib kelayotgan yana bir muhim yo‘nalish turizm va sayyohlik infratuzilmasi jadal rivojlanib borayotganidir. Yurtingizda sayyohlar soni tobora ortib bormoqda, bunda xalqaro aviaqatnovlarning ahamiyati juda katta. Varshavadan Toshkentga to‘g‘ridan to‘g‘ri reys mavjudligidan xursandmiz, mazkur imkoniyatlar turizmni rivojlantirish bilan birga xalqlarning bir-birini yaxshiroq anglashiga ham katta hissa qo‘shadi.

So‘nggi yillarda Prezident Shavkat Mirziyoyev va uning jamoasi amalga oshirayotgan ishlar O‘zbekistonning tanlangan yo‘lda qat’iy va sobit ekanini namoyon etmoqda.

— O‘zbekiston barqaror rivojlanish, “yashil” iqtisodiyot, raqamli transformatsiya, ilm-fan, ta’lim va inson kapitalini rivojlantirish borasida tashabbuslarni faol ilgari surmoqda. Ayting-chi, ushbu yo‘nalishlarda islohotlarni amalga oshirish qanchalik muhim?

— Bugun raqamli texnologiyalar bilan bog‘liq barcha taklif va tashabbuslar, sun’iy intellekt va boshqa zamonaviy yo‘nalishlarga javob bera olish uchun sifatli va zamonaviy ta’limga ega bo‘lish zarur. Bu borada ko‘plab o‘zbek yoshlarining xorijda tahsil olib, eng so‘nggi ilg‘or tajribalarni o‘zlashtirayotgani muhim ahamiyat kasb etadi. Aynan shunday yoshlar mamlakatning yanada taraqqiy topishida asosiy tayanch hisoblanadi.

Fikrimcha, O‘zbekistonda buning uchun zarur shart-sharoitlar mavjud. Agar “yashil” iqtisodiyot haqida gapiradigan bo‘lsak, quyoshli yurtingizda hali foydalanilmagan imkoniyatlar ancha ko‘p. Shuning uchun quyosh energetikasi, fotoelektrik texnologiyalar va boshqa “yashil” energetika yo‘nalishlariga jiddiy e’tibor qaratish kerak.



Boshqa tomondan, O‘zbekistonda suv resurslari bilan bog‘liq muammolar mavjud. Bu yerda ham yerni yanada samarali sug‘orish va mavjud suv resurslaridan oqilona foydalanish imkonini beradigan yechimlarni topish zarur.

Shu bilan birga, suv resurslarini to‘plash, boshqarish va taqsimlash masalalarida qo‘shni davlatlar bilan kelishgan holda harakat qilish lozim. Suv nizolar manbai emas, balki odamlar hayotini yaxshilashga xizmat qiladigan umumiy resurs bo‘lishi kerak.

Mamlakatingizga safarlarim davomida xalqingizning mehnatkashligi va tadbirkorligi menda katta taassurot qoldirgan. Odamlar tavakkal qilishdan qo‘rqmaydi, kichik bo‘lsa-da o‘z biznesi yoki ishlab chiqarishi bo‘yicha ishbilarmonlik qilishga intiladi. Albatta, kichik biznes yo‘nalishini rivojlantirish xalqni va mamlakatni boy qiladi.

> **Fikrimcha, O‘zbekistonda buning uchun zarur shart-sharoitlar mavjud. Agar “yashil” iqtisodiyot haqida gapiradigan bo‘lsak, quyoshli yurtingizda hali foydalanilmagan imkoniyatlar ancha ko‘p. Shuning uchun quyosh energetikasi, fotoelektrik texnologiyalar va boshqa “yashil” energetika yo‘nalishlariga jiddiy e’tibor qaratish kerak.**

Polsha tajribasidan kelib chiqib aytadigan bo‘lsam, mamlakat iqtisodiyoti rivojida kichik va o‘rta korxonalar muhim o‘rin tutgan. Shu bois, har qanday turdagi ishlab chiqarish yoki tadbirkorlik loyihasidan cho‘chimaslik kerak.

— O‘zbekiston so‘nggi o‘n yillik davomida xalqaro va mintaqaviy ahamiyatga ega qator tashabbuslarni ilgari surdi. Sizningcha, ushbu tashabbuslar xalqaro hamjamiyat uchun qanchalik ahamiyatga ega?

— Men Markaziy Osiyoga oid bunday tashabbuslarni juda muhim deb hisoblayman. Hozirgi kunda dunyo avvalgiga nisbatan ancha beqaror. Ana shunday sharoitda O‘zbekistonning hamkorlikka intilishi va murakkab masalalar bo‘yicha kelishuvlarga erisha olish qobiliyati tufayli Markaziy Osiyoning barqaror mintaqa bo‘lib qolmoqda.

Bu ayniqsa muhim, chunki biz Afg‘oniston bilan bevosita chegaradosh bo‘lgan yirik va murakkab mintaqa haqida so‘z yuritmoqdamiz. O‘zbekiston amalga oshirayotgan ishlarni doim yuqori baholab kelganman. Mamlakatning Qozog‘iston va Markaziy Osiyodagi boshqa qo‘shni davlatlar bilan yaxshi munosabatlarini ham alohida qadrlayman. Shuningdek, O‘zbekistonning muvozanatli va barqaror tashqi siyosati to‘g‘ri yo‘nalishda deb hisoblayman. Chunki siz barcha global aktorlar bilan munosabatlarni mustahkamlashga intilyapsiz va bu — oqilona siyosat.

Rossiya, Xitoy va AQSH rasmiy Toshkent uchun muhim hamkor. Yevropa Ittifoqi bilan imzolangan kelishuvlar juda ahamiyatli. Shu bois, muvozanatli, barqaror va uzoq muddatli tashqi siyosat haqida to‘xtalganda, yurtingizning to‘g‘ri qadamlar tashlayotganini alohida ta’kidlash kerak.

— Sizningcha, O‘zbekistonning izchil islohotlar tajribasi qaysi jihatlari boshqa davlatlar uchun qiziqish uyg‘otishi mumkin?

— Avvalo, islohotlarni boshlashdan cho‘chimaslik zarur. Chunki ko‘p hollarda asosiy muammo — siyosatchilarda “Islohotlarni boshlasak, natijasi qanday bo‘ladi?” degan xavotir uyg‘onadi. Mavjud qiyinchiliklarni to‘g‘ri anglash zarur va quvonarlisi, O‘zbekiston xuddi shunday yo‘lni tutmoqda.

Yosh jamiyatda ish o‘rinlarini ko‘paytirish va sifatli ta’limga alohida e’tibor qaratish zarur. Bu yo‘nalishda oldinga harakat qilish kerak. Dunyo va jahon iqtisodiyoti o‘zgarmoqda. Shuning uchun zamonaviy tarmoqlarni taraqqiy ettirish zarur.

Ekologik va raqamli yechimlarni rivojlantirish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yanada raqobatbardosh va yuqori qo‘shilgan qiymatga ega shaklga o‘tkazish zamon talabiga aylangan. Avval ham aytganimdek, insonlar salohiyatidan samarali foydalanish kerak. Ya’ni kichik va o‘rta korxonalarni rivojlantirish zarur bu — bugungi kunning eng muhim talabidir.

Islohotlar samaradorligini oshirishda byurokratiyani qisqartirish katta ahamiyatga ega. Chunki byurokratiya mamlakat oldida turgan muammolarni bartaraf etishda asosiy to‘siq bo‘lishi mumkin.

O‘zbekistondagi islohotlar tajribasidan ko‘plab ijobiy misollarni olish mumkin. Albatta, har bir mamlakatning o‘ziga xos xususiyatlari borligini unutmaslik lozim. Bir mamlakat tajribasini boshqa mamlakatga ko‘chirish kutilgan natijani bermasligi mumkin.

Biroq tan olish kerak, bugungi O‘zbekiston o‘ziga xos laboratoriyadir. Uni kuzatish, undan o‘rganish, mamlakatga kelish va ijobiy tajribalardan unumli foydalanish zarur.

— So‘nggi yillarda Polsha kompaniyalarining O‘zbekistonga qiziqishi sezilarli darajada oshganini kuzatmoqdamiz. Bu, ayniqsa, energetika, sanoat, infratuzilma va zamonaviy texnologiyalar kabi sohalarda yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Sizningcha, o‘zaro iqtisodiy hamkorlikning qaysi sohalarida hali to‘liq ishga solinmagan imkoniyatlar mavjud?

— Darhaqiqat, ikki tomonlama munosabatlar oxirgi paytlarda ancha muvaffaqiyatli kechmoqda. Men ekologiya sohasidagi hamkorlik istiqbollariga katta ishonch bilan qarayman. Jumladan, Orol dengizi kabi ekologik jihatdan zarar ko‘rgan hududlarni tiklash, qishloq xo‘jaligida suv resurslaridan yanada samarali foydalanish, irrigatsiya va melioratsiya tizimlarini rivojlantirish muhim yo‘nalishlardir.

Polsha infratuzilma qurilishi borasida katta tajribaga ega. So‘nggi yillarda mamlakatimizda avtomobil yo‘llari va avtomagistrallar qurilishi jadal kechmoqda. Bu borada Polsha korxonalari O‘zbekistondagi turli infratuzilmaviy loyihalarda ishtirok etishi mumkin.

Polsha farmatsevtika sohasini faol tarzda rivojlantirmoqda. Bu o‘zaro hamkorlik uchun muhim yo‘nalish sanaladi. Polsha aholisining qariyb 40 million ekanini inobatga olib, turizm yo‘nalishida ham aloqalarni rivojlantirish istiqbollidir.

Afsuski, O‘zbekiston ko‘plab polyaklar uchun hali yetarlicha tanish emas. Hozir Varshavadan O‘zbekistonga to‘g‘ridan to‘g‘ri aviaqatnov mavjud va parvoz ham unchalik ko‘p vaqt olmaydi. Toshkent, Samarqand, Buxoro va Xivani ziyorat qilish har qanday sayyohda katta taassurot qoldiradi.

Shuningdek, Polshada amalga oshirilayotgan islohot va boshqaruv yechimlari O‘zbekiston tomoni uchun ham qiziqarli bo‘lmoqda. Xususan, Polshada davlat boshqaruviga qiziqish bildirgan delegatsiyalarni qabul qildik. Bu borada o‘z tajribamiz bilan o‘rtoqlashishga doim tayyormiz.

Polsha va O‘zbekiston bozor iqtisodiyotiga o‘tish davrini muvaffaqiyat bilan bosib o‘tgan. Biz g‘oyalar, loyihalar va yondashuvlar nuqtayi nazaridan bir-birimizga ko‘p narsa taklif qila olamiz. Shu bois, hukumatlararo aloqalar, oliy darajadagi muloqotlarni izchil rivojlantirishni qat’iy qo‘llab-quvvatlayman.

— Yangi O‘zbekiston islohotlari boshlanganining 10-yilligi munosabati bilan mamlakatimiz rahbariyati va xalqiga tilaklaringiz.

— O‘zbekiston to‘g‘ri yo‘ldan bormoqda. So‘nggi 10 yil muvaffaqiyatli kechdi va bu davr ichida yorqin kelajak uchun mustahkam zamin yaratildi. Endi ushbu yo‘lni davom ettirish va xalqaro maydondagi hozirgi murakkab vaziyatda qat’iyat ko‘rsatish kerak.

Polshada 1990-yillarning o‘rtalarida katta islohotlarni boshlaganimizda xalqaro muhit nisbatan barqaror va qulay edi. Bugun esa xalqaro maydondagi vaziyat butunlay o‘zgacha. Shu bois, O‘zbekiston rahbariyati va xalqiga kuch-g‘ayrat, tinchlik va farovonlik tilayman.

O‘zbekiston bugungi siyosatida davom etsa, u Markaziy Osiyo, umuman, jahon miqyosida qudratli mamlakatlardan biriga aylanadi.

Ana shu yo‘lda izchil harakat qilishingizga tilakdoshman.

“Dunyo” AA
Varshava shahri

> **Polsha va O‘zbekiston bozor iqtisodiyotiga o‘tish davrini muvaffaqiyat bilan bosib o‘tgan. Biz g‘oyalar, loyihalar va yondashuvlar nuqtayi nazaridan bir-birimizga ko‘p narsa taklif qila olamiz. Shu bois, hukumatlararo aloqalar, oliy darajadagi muloqotlarni izchil rivojlantirishni qat’iy qo‘llab-quvvatlayman.**

Xalqaro e’tirof



JAHON BANKI O‘ZBEKISTONDA AHOLINI KAMBAG‘ALLIKDAN CHIQARISH VA FAROVONLIKKA ERISHISH ISLOHOTLARINI YUKSAK BAHOLADI

Boshlanishi 1-betda

Jahon bankining “O‘zbekistonda kambag‘allik va tenglikni baholash: farovonlikka erishish va barcha uchun imkoniyatlarni kengaytirish sari” hisoboti shu nuqtayi nazardan mamlakatdagi iqtisodiy jarayonlarga kengroq nazar tashlash imkonini beradi.

2021-2025-yillarda qariyb 3,7 million odamning kambag‘allikdan chiqqani haqida o‘qir ekanmiz, bu raqamni bir lahza statistik hisobot sahifasidan olib, inson hayoti mezoniga qo‘yib ko‘rish mumkin. Kechagi “bugunni qanday o‘tkazaman?” degan tashvish asta-sekin “ertaga qanday yashayman?” degan rejaga aylanayotganini tasavvur qilamiz. Aslida, kambag‘allikdan chiqishning mohiyati ham shunda. Insonning bugungi daromadi ko‘payishi bilan cheklanmaydi, uning ertangi imkoniyatlari kengayib boradi. Qaysi kasbni tanlash, qayerda ishlash, farzandiga qanday ta’lim berish, uy-joy sharoitini yaxshilash, sog‘lig‘i va kelajagi uchun mablag‘ ajratish kabi qarorlarning barchasi iqtisodiy imkoniyatlar bilan chambarchas bog‘liq. Shuning uchun kambag‘allikdan chiqishni foizning kamayishi bilan birga insonning imkoniyatlari kengayishi sifatida ham anglash zarur.

Hisobotdagi yana bir muhim jihat — o‘rta qatlamning ko‘payishi. 2021-yilda O‘zbekiston aholisining 37 foizi o‘rta qatlamga mansub bo‘lgan, 2025-yilga kelib esa bu ko‘rsatkich 72 foizdan oshgan. Bu raqamni ham faqat iqtisodiy ko‘rsatkich sifatida qabul qilish kamlik qiladi. Chunki o‘rta qatlamning kengayishi jamiyatdagi hayot tarzining o‘zgarishini ham anglatadi. Daromadi nisbatan barqaror inson ertangi kuni haqida reja qila oladi. Farzandining ta’limiga mablag‘ ajratadi. Kasbiy malakasini oshirish haqida o‘ylaydi. Uy-joyini yaxshilash yoki tadbirkorlikni boshlash imkoniyatlarini ko‘rib chiqadi. Ya’ni insonning tafakkuridagi “tirik qolish” ehtiyoji asta-sekin “rivojlanish” zaruratiga o‘rin bo‘shatadi. Jamiyatda o‘rta qatlam qancha ko‘paysa, odamlarning o‘z kelajagiga ta’sir ko‘rsatish imkoniyati ham shuncha ortib boradi.

Kambag‘allik geografiyasidagi o‘zgarish ham alohida e’tiborga loyiq. Ilgari kambag‘allik haqida gap ketsa, tasavvurimizda, avvalo, qishloq, olis hudud, imkoniyati cheklangan mahallalar gavdalanar edi. Bugungi raqamlar esa bu tasavvurni o‘zgartirmoqda. Qishloq va shaharlardagi kambag‘allik darajasi o‘rtasidagi farq 2021-yildagi 5,9 foizdan 2025-yilda 1,2 foizgacha qisqargan. Bu o‘zgarishlarning ahamiyati poytaxt va yirik shaharlardan tortib, eng chekka hududdagi oddiy xonadon hayotigacha yetib borayotgani bilan baholanadi. Agar imkoniyatlar faqat markazlarda to‘planib qolsa, iqtisodiy o‘sish jamiyatning barcha qatlamiga birdek ta’sir ko‘rsatmaydi. Shu nuqtayi nazardan, qishloq va shahar o‘rtasidagi kambag‘allik tafovutining qisqarishi imkoniyatlar geografiyasi kengayayotganining muhim belgisidir.

Ijtimoiy ko‘mak muhtoj insonga qiyin vaziyatda vaqtinchalik madad bo‘lishi mumkin. Biroq oilani uzoq muddatli kambag‘allikdan olib chiqadigan asosiy kuch bilim va kasb orqali topiladigan munosib daromaddir. Bugun davlat siyosatida odamlarga baliq emas, qarmoq berilmoqda. Natijada kam ta’minlangan xonadonlarda erkaklarning maoshli ish bilan bandlik ulushi 2022-yildagi 18 foizdan 2025-yilda 46 foizga yetdi. Ehtiyojmand qatlamning yillik real ish haqi 11-12 foiz oshgani mazkur islohotlarning aholi hayotiga ijobiy ta’sirini ifodalaydi. Tizimli ko‘mak insonni mustaqillikka yetaklashi lozim. Kambag‘allikka qarshi kurashning eng to‘g‘ri yo‘li ham aynan fuqarolarning o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishi uchun keng imkoniyatlar yaratishdir.



Mazkur imkoniyatlar eshigi ochilishi natijasida 2019-2024-yillarda O‘zbekiston aholisining 44 foizi yuqori iqtisodiy toifaga o‘tdi. Kimdir doimiy ish o‘rniga ega bo‘ldi, kimdir zamonaviy kasb-hunar egalladi, yana kimdir oilaviy tadbirkorlik orqali yangi daromad manbaini yaratdi. Kechagina kundalik ro‘zg‘or xarajatini amallab topayotgan oilalar bugun farzandlarining sifatli ta’lim olishi yoki uy-joy sharoitini yaxshilash haqida uzoq muddatli rejalar tuza boshladi. Iqtisodiy harakatchanlikning eng sezilarli yutug‘i ham aynan odamlar dunyoqarashi va hayot darajasining sifat jihatidan o‘zgarishida ko‘rinadi.

Shuningdek, iqtisodiy zinaning yuqori pog‘onasiga chiqish bilan maqsad mukammal bo‘lib qolmaydi. Yuksalish sur’atini saqlab qolish va erishilgan daromadlarni muhofaza qilish navbatdagi muhim vazifadir. Mehnat bozorida talablar tez o‘zgarayotgan, yangi kasblar paydo bo‘layotgan hozirgi sharoitda ish joyining barqarorligi va mutaxassisning malakasi birinchi o‘ringa chiqdi. Bugungi farovonlik ertangi yangi ehtiyojlar oldida kamlik qilmasligi uchun davlat tomonidan uzluksiz kasbga o‘qitish va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash tizimi izchil davom ettirilmoqda.

Jahon bankining hisobotidagi raqamlar mana shu tizimli zanjirning uzviy qismlaridir. Unda aks etgan ko‘rsatkichlar quruq statistika emas. Kambag‘allik qisqarishi, o‘rta qatlam ko‘payishi, qishloq va shahar o‘rtasidagi tafovut kamayishi ortida millionlab yurtdoshlarimizning o‘zgargan taqdiri, yangi ish o‘rinlari va ro‘yobga chiqqan umidlari turibdi.

Erishilgan ijobiy ko‘rsatkichlar tizimli yangilanishlar to‘g‘ri strategik yo‘nalishda olib borilayotganini tasdiqlaydi. Vaqt o‘tishi bilan statistika jadvallaridagi millionlab raqamlar va foizlar oddiy, ammo farovon hayot manzaralariga aylanishi muqarrar. Zero, islohotlarning asl muvaffaqiyati quruq hisobotlarda aks etmaydi. Ular yurtdoshlarimizning ertangi kunga qat’iy ishonchi, xonadonlar barakasi, shinam uy-joylar hamda farzandlarimizning sifatli ta’limi va porloq istiqbolida o‘z ifodasini topadi.

Sardor TOLLIBOYEV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

YANGI O‘ZBEKISTON

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news

O‘zbekistonning Markaziy Osiyodagi geografik o‘rni, ishlab chiqarish salohiyati va agrar mahsulotlar xilma-xilligi Serbiya bilan hamkorlikni nafaqat ikki tomonlama savdo, balki Yevropa bozorlariga chiqish uchun muhim ko‘prikka aylantirishi mumkin.







Tahlil

Qishloq xo‘jaligi: DUNYO BOZORLARIGA OCHILAYOTGAN YO‘L



Bugungi globallashayotgan dunyo iqtisodiyotida oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash, barqaror agrotexnologiyalarni joriy etish hamda samarali eksport zanjirlarini shakllantirish har bir davlatning strategik vazifasiga aylanmoqda. Qishloq xo‘jaligi endilikda faqatgina aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlaydigan tarmoq emas, balki iqtisodiy o‘sish, bandlik, hududlar rivoji, tashqi savdo va investitsiyaviy faollikni belgilovchi muhim omillardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Shu bois, agrar sohada ishlab chiqarish hajmini oshirish bilan birga mahsulotni qayta ishlash, saqlash, qadoqlash, sertifikatlash va xalqaro bozorga olib chiqish masalalari ham alohida ahamiyat kasb etmoqda. So‘nggi yillardagi faol, ochiq va pragmatik tashqi siyosat natijasida mamlakatimiz qishloq xo‘jaligi sektori transformatsiya jarayonini boshdan kechirmoqda.

Jahon iqtisodiyotida qishloq xo‘jaligining o‘rni, avvalo, uning ko‘plab tarmoqlar uchun xomashyo yetkazib berishi, millionlab insonlar bandligini ta’minlashi va oziq-ovqat bozorlarining barqaror ishlashiga xizmat qilishi bilan belgilanadi. Agrar tarmoqdagi o‘zgarishlar sanoat, transport, logistika, savdo, xizmat ko‘rsatish, moliya va ilm-fan rivojiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Zamonaviy sharoitda qishloq xo‘jaligining raqobatbardoshligi yer va suv resurslaridan oqilona foydalanish, iqlim o‘zgarishlariga moslashish, raqamli texnologiyalarni qo‘llash hamda yuqori qo‘shilgan qiymat yaratish darajasi bilan o‘lchanmoqda.

Xalqaro hamkorlik agrar soha uchun yangi bozorlarni ochish bilangina cheklanmaydi. U ilg‘or tajribalarni o‘rganish, zamonaviy texnologiyalarni jalb etish, ilmiy tadqiqot aloqalarini mustahkamlash, mutaxassislar malakasini oshirish, investitsiyalarni ko‘paytirish va milliy mahsulotlarni xalqaro standartlarga moslashtirish uchun ham muhim vositadir. Hamkor mamlakatlar bilan yo‘lga qo‘yiladigan tizimli munosabatlar natijasida mahalliy ishlab chiqaruvchi nafaqat mahsulot sotish, balki yangi bilim, texnologiya va boshqaruv tajribasiga ega bo‘lish imkoniyatini qo‘lga kiritadi.

Hozir O‘zbekiston 180 dan ortiq davlat bilan faol savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlikni yo‘lga qo‘ygan. 30 dan ortiq mamlakatga oliy darajadagi rasmiy va davlat tashriflari amalga oshirildi. Yuritilayotgan izchil diplomatik sa’y-harakatlar natijasida yurtimizning umumiy tashqi savdo aylanmasi 81,2 milliard dollardan oshdi. Jami xorijiy investitsiya hajmi esa 43,1 milliard dollarga yetdi.

Bunday ochiqlik qishloq xo‘jaligi uchun ham yangi imkoniyatlar yaratmoqda: eksport geografiyasini kengaytirish, xorijiy hamkorlar bilan qo‘shma loyihalarni ro‘yobga chiqarish, zamonaviy uskunalar olib kirish va mahalliy mahsulotlarning qo‘shilgan qiymatini oshirish uchun mustahkam zamin shakllanmoqda. Eng muhimi, xalqaro hamkorlik orqali O‘zbekiston agrobiznesi jahon bozoridagi talab va tendensiyalarni chuqurroq o‘rganish, xaridorlar ehtiyojiga mos mahsulot yetishtirish hamda uzoq muddatli savdo aloqalarini yo‘lga qo‘yish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda.



Shamshod ERGASHEV,
Qishloq xo‘jaligi vaziri kotibiyati boshlig‘i

Ayniqsa, tarixda ilk bor rasmiy tashriflar amalga oshirilgan davlatlar bilan yo‘lga qo‘yilayotgan yangi munosabatlar O‘zbekiston agrobiznesi uchun Yevropa va Janubi-sharqiy Osiyoning yirik bozorlariga to‘g‘ridan to‘g‘ri yo‘l ochmoqda. Birgina Serbiya va Malayziya misolida ilk rasmiy tashriflar amalga oshirilib, O‘zbekiston uchun barcha sohalarni hamkorlikda rivojlantirish va kengaytirishda katta qadam bo‘lganini eslash kifoya.

Serbiya bilan hamkorlik

Joriy yilning 7-8-sentabr kunlari Prezidentimizning Serbiyaga oliy darajadagi ilk rasmiy tashrifi hamda Belgrad shahrida o‘tkazilgan biznes-forum ikki mamlakat iqtisodiy munosabatlarida yangi sahifa ochdi. Biznes-forumda Serbiya Prezidenti Aleksandr Vuchich ta’kidlaganidek, dunyoda iqtisodiy o‘sish markazlari o‘zgardi va O‘zbekiston kabi jadal rivojlanayotgan, uzoq muddatli strategiyaga ega davlatlar bilan hamkorlik Yevropa uchun strategik ahamiyatga ega.

Mazkur fikr ikki mamlakat o‘rtasidagi munosabatlarning iqtisodiy mazmunini yaqqol ifodalaydi. O‘zbekistonning Markaziy Osiyodagi geografik o‘rni, ishlab chiqarish salohiyati va agrar mahsulotlar xilma-xilligi Serbiya bilan hamkorlikni nafaqat ikki tomonlama savdo, balki Yevropa bozorlariga chiqish uchun muhim ko‘prikka aylantirishi mumkin. Serbiyaning Yevropa bozorlariga integratsiyalashgan iqtisodiy makonda faoliyat yuritishi esa o‘zbek tadbirkorlari uchun mahsulot sifati, logistika, sertifikatlash va savdo amaliyotlarini o‘rganishda qo‘shimcha imkoniyatlar yaratadi.

Serbiya rahbari O‘zbekiston Prezidentining islohotlarga bo‘lgan qat’iyatini yuqori baholab: “O‘zbekiston Prezidentining ko‘zlarida “yo‘lbars nigohi” bor. Bu — muvaffaqiyatga chanqoq, intiluvchan, o‘z xalqining har bir fuqarosi va har bir muammosi haqida qayg‘uradi deganidir. Qaysi sohaga nazar tashlamay, O‘zbekiston qanchalik oldinga ildamlayotganini ko‘rdim”, deya alohida e’tirof etdi.

Ushbu ta’rif chuqur ma’noga ega va ijobiy natijalar mahsuli bo‘lib, kelgusida hamkorlikni yanada kengaytirish va investitsiya jalb qilishda muhim o‘rin tutadi. Siyosiy muloqotning yuqori darajada yo‘lga qo‘yilishi iqtisodiy loyihalar uchun zarur bo‘lgan ishonch muhitini mustahkamlaydi. Ayniqsa, qishloq xo‘jaligida uzoq muddatli investitsiyalar, ilmiy hamkorlik va texnologik loyihalar talab etilishi hisobga olinsa, bunday ishonchli munosabatlar ahamiyati yanada ortadi.

Serbiya Yevropa Ittifoqi standartlariga to‘liq mos keluvchi intensiv bog‘dorchilik, urug‘chilik va biotexnologiyalar bo‘yicha katta tajribaga ega. Ushbu texnologiyalar joriy etilishi mahsulotlarimizni Global G.A.P., Organic va ISO standartlariga moslashtiradi. Bu esa xalqaro bozorda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarimizni sotish va raqobatlashish uchun katta imkoniyat yaratadi.

Bu yo‘nalishlarning har biri O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi uchun amaliy ahamiyatga ega.



Intensiv bog‘dorchilik hosildorlikni oshirish, meva sifati va eksportbopligini yaxshilashga xizmat qilsa, zamonaviy urug‘chilik yuqori hosilli, kasallik va iqlim sharoitlariga mos navlarni kengaytirish imkonini beradi. Biotexnologiyalar esa o‘simliklarni himoya qilish, ko‘chat yetishtirish, tuproq unumdorligini saqlash va mahsulotning biologik sifat ko‘rsatkichlarini yaxshilashda muhim vosita bo‘la oladi.

Global G.A.P., Organic va ISO kabi standartlar mahsulotning faqat tashqi ko‘rinishi yoki ta’mi emas, balki uni yetishtirish, qayta ishlash, saqlash va yetkazib berish jarayonlari izchilligini ham nazorat qiladi. Shu sababli xalqaro standartlarni joriy etish eksportchi korxonalar uchun yangi bozorlar eshigini ochish bilan birga ichki ishlab chiqarish madaniyatini ham yuksaltiradi. Bu jarayonda fermer, qayta ishlovchi korxona, laboratoriya, logistika kompaniyasi va eksportchi o‘rtasidagi hamkorlik yagona tizim sifatida shakllanishi zarur.

“Davlat — davlatga” (G2G) tamoyili asosidagi loyihalarni soddalashtiruvchi bitimlar tuzildi va kelgusida erkin savdo to‘g‘risida bitim imzolash bo‘yicha kelishuvlarga erishildi. Bu o‘zbek agrotadbirkorlari va ishlab chiqaruvchilarining Yevropa hamda Bolqon mintaqasi bozorlariga bojxona imtiyozlari bilan chiqishini ta’minlaydi. Bundan tashqari, Toshkent va Belgrad o‘rtasida to‘g‘ridan to‘g‘ri aviaqatnovlar yo‘lga qo‘yilishi tez buziluvchi qishloq xo‘jaligi mahsulotlari logistikasini yengillashtiradi. Bu nafaqat eksportni oshiradi, balki Yevropadan import qilinadigan mahsulotlar hamda tropik mevalar narxi arzonlashishiga ham olib keladi.

Savdo tartib-taomillari soddalashuvi va transport aloqalari yaxshilanishi, ayniqsa, tez buziluvchi mahsulotlar uchun muhimdir. Meva-sabzavot, ko‘katlar, yangi va qayta ishlangan oziq-ovqat mahsulotlari bozorida vaqt omili hal qiluvchi ahamiyatga ega. Mahsulotning daladan iste’molchigacha bo‘lgan yo‘li qisqargani sari uning sifati, saqlanish darajasi va iqtisodiy samaradorligi oshadi. Shu ma’noda, to‘g‘ridan to‘g‘ri aviaqatnovlar va savdo kanallari nafaqat eksport hajmiga, balki mahsulotning yakuniy narxi va raqobatbardoshligiga ham ta’sir ko‘rsatadi.

Osiyoda yangi agroyo‘laklar

Davlatimiz rahbarining 2025-yil 4-5-fevral kunlari Malayziyaga tarixiy tashrifi va Bosh vazir Anvar Ibrohim ishtirokida Kuala-Lumpurda o‘tkazilgan qo‘shma biznes-forum o‘zaro tovar ayirboshlashni karrasiga oshirishga xizmat qilmoqda. Bugungi kunda ikki mamlakat o‘rtasidagi savdo aylanmasi 102,4 million dollarni tashkil etayotgan bo‘lsa, imzolangan yangi kelishuvlar va sanoat kooperatsiyasi dasturi ushbu ko‘rsatkichni yaqin yillarda bir necha barobar oshirish imkonini beradi.

Malayziya bilan hamkorlik O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi uchun geografik jihatdan yangi, iqtisodiy jihatdan esa istiqbolli yo‘nalishdir. Janubi-sharqiy Osiyo bozorlari oziq-ovqat mahsulotlari, qayta ishlangan agromahsulotlar, halol sertifikatlangan tovarlar va zamonaviy agrotexnologiyalarga bo‘lgan talab bilan ajralib turadi. Ushbu hudud bilan hamkorlik o‘zbek ishlab chiqaruvchilariga yangi xaridorlar, yangi savdo kanallari va yangi mahsulot formatlarini o‘zlashtirish imkonini beradi.

Xalqaro hamkorlikning yana bir muhim jihati shundaki, u bir tomonlama eksportdan ko‘ra kengroq iqtisodiy aloqalarni shakllantiradi. Ya’ni O‘zbekiston mahsulotlarini Malayziya bozoriga olib chiqish bilan birga malayziyalik kompaniyalarning texnologik, ilmiy va investitsiyaviy tajribasini mamlakatimizga jalb etish, qo‘shma korxonalar tashkil qilish va mahalliylashtirish jarayonlarini jadallashtirish uchun ham imkoniyat paydo bo‘ladi. Bunday yondashuv agrar sohada ishlab chiqarishning yangi bosqichini yaratishga xizmat qiladi.

Oliy darajadagi kelishuvlarning amaliy samarasi o‘laroq, joriy yil 28-avgustdan 6-sentabrga qadar Malayziyaning Selangor shtatida o‘tkazilgan nufuzli “MAHA — 2026” (“Malaysia Agriculture, Horticulture and Agrotourism”) xalqaro ko‘rgazmasida O‘zbekiston tarixda ilk bor milliy pavilyon bilan ishtirok etdi. 130 gektar maydonda o‘tgan ko‘rgazmada 2000 dan ziyod kompaniya va 14 davlat qatnashdi. O‘zbekiston milliy pavilyonida 15 ta mahalliy tadbirkorlik subyekti tomonidan 100 ga yaqin turdagi agromahsulotlar — ho‘l va quritilgan meva, sharbatlar hamda milliy shirinliklar namoyish etildi. Malayziya Bosh vaziri Anvar Ibrohim shaxsan pavilyonimizga tashrif buyurib, o‘zbek mahsulotlarining sifati va raqobatbardoshligiga yuqori baho berdi. Mazkur tadbir doirasida bir qancha kelishuvlarga erishildi. Jumladan, Malayziya Qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat xavfsizligi vazirligining Toshkent shahar bo‘limi 2026-yil 31-dekabrga qadar rasmiy vakolatxona sifatida ochiladi. MARDI instituti bazasida O‘zbekiston Qishloq xo‘jaligi fanlari akademiyasi tadqiqotchilari uchun ilmiy-amaliy stajirovkalar yo‘lga qo‘yiladi. FAMA agentligi bilan birgalikda Malayziya tarvuz, qovun va sabzavotlarini O‘zbekistonda yetishtirish hamda ularni Janubi-sharqiy Osiyoga eksport qilish amaliyoti boshlanadi.

Toshkent viloyatida robototexnika va agrodronlar ishlab chiqarish mahalliylashtirilib, 1000 ta yangi ish o‘rni yaratiladi hamda 100 ming gektar maydonga raqamli xizmat ko‘rsatiladi.

Qashqadaryo viloyatida Malayziya kompaniyasi bilan hamkorlikda zamonaviy sut yetishtirish, qayta ishlash hamda agroturizm majmuasi barpo etiladi. “Agro Best Holding International” kompaniyasi bilan 5 million AQSH dollari qiymatidagi savdo shartnomasi imzolandi.

Shuningdek, Kuala-Lumpur shahrida 200 dan ortiq turdagi milliy mahsulotlarimiz namoyish etiladigan “O‘zbekiston mahsulotlari” savdo uyi tashkil etiladi.

O‘zbekistonda 2027-yil 2-5-noyabr kunlari “Malayziya — O‘zbekiston International Halal Fest 2027” xalqaro forum va ko‘rgazmasini o‘tkazish bo‘yicha rasmiy kelishuvga erishildi.

MARDI instituti bazasida ilmiy-amaliy stajirovkalar yo‘lga qo‘yilishi tadqiqotchilar uchun yangi bilim va tajriba maktabini yaratadi. Ilmiy muassasalar o‘rtasidagi aloqalar kuchaygani sari mahalliy sharoitga mos agrotexnologiyalarni sinovdan o‘tkazish, yangi nav va texnologiyalarni o‘rganish, ishlab chiqarishdagi muammolarga ilmiy yechim topish imkoniyatlari kengayadi. Bu jarayon qishloq xo‘jaligida ilm-fan va amaliyot integratsiyasini kuchaytirish uchun muhim omildir.

FAMA agentligi bilan hamkorlikda tarvuz, qovun va sabzavotlarni O‘zbekistonda yetishtirish hamda ularni Janubi-sharqiy Osiyoga eksport qilish amaliyoti boshlanishi mahsulot yetishtirish geografiyasi va bozor yo‘nalishlarini diversifikatsiyalashga xizmat qiladi. Bunda nafaqat hosildorlik, balki nav tanlash, mahsulotni saralash, qadoqlash, saqlash va tashish jarayonlarini yangi bozorlar talabiga moslashtirish masalalari ham muhim o‘rin tutadi.

Yevropadan Osiyogacha bo‘lgan hududda yangi va barqaror agroyo‘laklar shakllandi. Yaratilgan ushbu ulkan imkoniyatlar, diplomatik va institutsional poydevor mahalliy agrotadbirkorlarimiz jahon bozorida o‘z o‘rniga ega bo‘lishi uchun mustahkam zamin yaratdi. Endigi asosiy vazifa mavjud salohiyatdan unumli foydalanib, milliy brendlarimizni dunyo miqyosida munosib ilgari surishdan iboratdir.

Zero, jahon bozorida munosib o‘rin egallash faqat mahsulot hajmini oshirish bilan emas, balki sifati, xavfsizligi, kelib chiqishining shaffofligi, yetkazib berish barqarorligi va iste’molchi ehtiyojiga mosligi bilan belgilanadi. O‘zbekistonning tabiiy-iqlimiy imkoniyatlari, mehnatsevar dehqon va fermerlari, qayta ishlash salohiyati hamda xalqaro hamkorlikka ochiqligi ushbu maqsadga erishish uchun muhim asos bo‘lib xizmat qiladi. Serbiya va Malayziya bilan yo‘lga qo‘yilayotgan yangi munosabatlar esa ana shu salohiyatni jahon iqtisodiy makoniga yanada kengroq olib chiqish uchun yangi sahifa ochmoqda.

TASHABBUS BOR JOYDA RIVOJLANISH BO‘LADI

Mahallaning bir kuni

Barnoxonning boshi qotdi. Turmush o‘rtog‘i ishsiz, kunlik topib kelgani ro‘zg‘or kami-ko‘stidan ortmaydi. Bir tomonda uch farzandi birin-ketin ulg‘ayib kelyapti. Oila kattalashgani sayin o‘y-tashvish ham yiriklashib borar ekan-da. Nima qilsa yaxshi bo‘ladi? Ana shu o‘y-tashvish bilan mahalla fuqarolar yig‘ini idorasi eshigini taqillatdi...



Mahalla raisi ayolni diqqat bilan eshitdi. Mavjud masalalar yechimida mahalla tomonidan berilishi mumkin bo‘lgan imkoniyat va imtiyozlar haqida tushuntirdi.

— Sizga bir taklif bor, imtiyozli kredit olishingizga ko‘maklashamiz. Tomorqangiz bor, mol-qo‘y olib boqishga sharoitingiz yaxshi. Er-xotin bir yoqadan bosh chiqarib mehnat qilsangiz, biringiz ikki bo‘ladi.

Ish mahalla raisi aytganidek bo‘ldi. “Mahalla yettiligi” tavsiyasi bilan unga imtiyoz asosida 10 million so‘m berildi. Oila bu puldan maqsadli foydalanib, xo‘jaligida qo‘y boqishni boshladi. Mahalla raisi hamrohligida mazkur xonadonda bo‘ldik.

— Imtiyozli kredit olganim yaxshi bo‘ldi, — deydi Barnoxon. — Erta ko‘klamda to‘rt bosh qo‘zi olgandik, hozir har biri katta qo‘chqor bo‘ldi. Mehnati ham og‘ir emas. Kundalik topgan pulim ro‘zg‘orga ketsa, bular zaxira boylik. Bittasini sotib, kreditni yopamiz. Qolganlarini ko‘paytirmoqchimiz, — deya hovli chekkasidagi qo‘ra sari boshladi.

— Eh-he, har biri 5-6 millionlik bo‘lib qolibdi-yu! Yashang-e, — deya raisning yuziga mamnunlik yugurdi. — Sizning ishingiz ko‘plar uchun ibrat. Mehnat qilinsa, har bir ishga astoydil kirishilsa, albatta, natija beradi.

Rishton tumani “Oqtomir” mahalla fuqarolar yig‘inida aholi bandligini ta’minlash borasidagi ishlar yangi tashabbuslarga eshik ochmoqda.

— Odamlarimiz boqimandalik, loqaydlikdan tashabbuskorlikka, tomorqadan kattaroq daromad olishga o‘tyapti, — deydi mahalla raisi Rustamjon Toshpo‘latov. — Hududimizning asosiy drayveri bog‘dorchilik va dehqonchilik. Tomorqadan unumli foydalanish, yangi ish tajribalarini qo‘llab-quvvatlashga imkon qadar ko‘maklashyapmiz.

Keyingi manzil tomorqachi Abdumalik Meliboyev xonadoni bo‘ldi. Bu yerga kirgan kishi bir parcha yer ham xazina ekaniga amin bo‘ladi. To‘rt sotix issiqxonada sitrus o‘simliklar, pomidoru bodring baravj rivojlanmoqda. Ochiq maydonlarda qalampir, sabzi, kartoshka, baqlajon, qo‘yingki, ro‘zg‘orga nima kerak bo‘lsa, bor. Ehtiyojdan ortig‘i bozorda sotiladi. O‘tgan yili tomorqadan 30 million so‘mdan ortiq daromad ko‘taribdi.

Anvarjon Isaqov tomorqasida tashkil qilgan 5 sotix intensiv gilos bog‘i ko‘zni quvnatadi. Bu yilgi mavsumda 50 million so‘mlik mahsulot sotibdi. Bundan tashqari, pista yetishtirish va urug‘chilikni ham yo‘lga qo‘ygan.

— Bugungidek sharoit, imkoniyatlar hech qachon bo‘lmagan, — deydi Anvarjon aka bog‘ oralab. — Qishloq joylarda tomorqachilikni rivojlantirish uchun mablag‘, ko‘chat, urug‘ berilyapti. Yaxshi yashashni orzu qilgan oila mehnat va izlanishdan qochmasligi kerak. Ba’zi joylarda bo‘sh turgan, qarovsiz tomorqa yerlarni ko‘rsam, yuragim achishib ketadi. Shunday qulay sharoitdan foydalanmay, kambag‘al, ishsiz bo‘lib yashash uyat. Suv muammo edi, yechim topib berishdi. Mana shu uy-joy, to‘kin hayot, avvalo, soha rivoji yo‘lida berilgan imtiyoz va imkoniyatlar, mehnatlarimiz samarasi, albatta.

Mahallada tomorqada issiqxona qurish ommalashdi. Bugunga qadar 50 ga yaqin xonadon shu sohaga ixtisoslashdi. Masalan, birinchilardan bo‘lib bu ishning boshini tutgan Ibrohimjon Botirov ish tajribasi ko‘pchilikka ibrat. U har yili tomorqadan ikki-uch marta hosil olib, 50-60 million so‘m daromad qilyapti.

— Joriy yil boshidan buyon issiqxona qurish va chorva qilish istagida bo‘lgan tashabbuskorlarga 300 million so‘mdan ziyod imtiyozli kredit ajratilgan, — deya suhbatni davom ettirdi mahalla raisi. — Olingan daromad to‘kinchilik, tashabbuslarga zamin yaratmoqda. Qishlog‘imizda yangi ishlab chiqarish sexlari tashkil qilinmoqda, hunarmandlik, kasanachilik, xizmat ko‘rsatish tarmoqlari kengayib, qo‘shimcha ish o‘rinlari yaratilyapti. Elektr ta’minotini yaxshilash maqsadida eski simyog‘ochlar beton tayanch ustunlarga almashtirildi, kabellar, internet tarmog‘i tortilyapti. Bu ishlar samaradorligini oshirishda mahallalar moliyaviy mustaqilligi qo‘l kelyapti. Ayniqsa, jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk va yer solig‘i tushumlarining bir qismi mahalla budjetida qolayotgani hududlar obodligiga hissa qo‘shmoqda. Yangi yildan bu miqdor yanada oshirilishi belgilab berildi. Demak, imkoniyatlar yanada kengayadi.

Mahalla ahli o‘zaro hamjihat bo‘lib, ko‘plab ijtimoiy masalalarga yechim topmoqda. Jumladan, mahalla “Tashabbusli budjet”ning 2025 va 2026-yilgi 1-mavsumlarida g‘olib bo‘ldi. Natijada 7,5 kilometrdan ortiq ichki yo‘l asfalt qilindi. Mahallada asfaltlanmagan ko‘cha, suv yetib bormagan xonadon qolmadi, ko‘cha chiroqlari o‘rnatildi. To‘g‘ri, hali yechimini kutib turgan masalalar bor. Masalan, mahalla kutubxonasi, yoshlar uchun sport zali, o‘quv markazi, mini stadion qurish, ariqlarga lotok o‘rnatish kabi loyihalar yaqin istiqboldagi rejalar va tashabbuslar dasturidan o‘rin olgan.

— Yoshim yetmishdan oshdi, — deydi mehnat faxriysi Akbarali Xalilov. — Keyingi paytlarda mahallamiz, oilamiz hayot tarzida yuz berayotgan o‘zgarishlarni ko‘rib sevinaman. Yaqingacha oylik maosh, pensiyamizni ololmay sarson bo‘lardik. Yog‘, un yetishmasligi bilan bog‘liq holatlar kechagidek yodimizda. Bugungi farovonlikni ko‘ring! Oy tugashi bilan pensiyamizni olib kelib berishyapti. Do‘konlarda un va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari serob. Yozda chang, qishda loy ko‘chatlarimiz ta’mirlab berildi. Sal shamol tursa, chiroq o‘chardi. Ming shukr, hammasi izga tushdi.

Tashabbus bor joyda taraqqiyot bo‘ladi. Buni tuman markazidan o‘n besh chaqirim olisdagi, 4500 dan ortiq aholi umrguzaronlik qilayotgan Oqtomir mahallasi misolida ko‘rishimiz mumkin.

Rasuljon KAMOLOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Bundan o‘n yil muqaddam O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi qonuni qabul qilingan edi. Mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosati sohasidagi munosabatlarni tamomila o‘zgartirib yuborgan va yangi sifat bosqichiga olib chiqqan ushbu qonun doirasida juda ko‘p ishlar qilindi. Jarayon bugun ham izchil davom etmoqda. Ushbu qonunning ahamiyati va hayotimizdagi o‘rnini yaqqol tushunish bu borada qisqa tarixiy rakurs qilish va ayrim savollarga javob berishni taqozo etadi. Xullas, qonun qabul qilinishiga qanday ijtimoiy zarurat bor edi? U yoshlarga oid davlat siyosatini qanchalik o‘zgartira oldi? Zamon shiddati bu borada yana qanday bo‘shliqlarni to‘ldirishni taqozo qilmoqda?



Abduxoliq TASHANOV,
Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti bo‘lim boshlig‘i

YOSHLAR – DAVLATNI HARAKATGA KELTIRUVCHI ASOSIY KUCH



Kamolot pillapoyasi

2016-yilga qadar amalda bo‘lgan “O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to‘g‘risida”gi ilk qonun 1991-yil 20-noyabrda mamlakatimiz mustaqillikka erishgan ilk oylarda qabul qilingan edi. O‘tgan chorak asr davomida davlatchilik tizimi, bozor iqtisodiyoti sharoiti, ijtimoiy tuzilma va yoshlarning ehtiyoji tubdan o‘zgardi. 1991-yilgi qonun ko‘proq deklarativ xususiyatga ega bo‘lib, yangi davrning institutsional va huquqiy talablariga javob bera olmay qoldi. Bundan tashqari, mamlakatimiz aholisining qariyb 60 foizini yoshlar tashkil etgani holda, ularning salohiyatini ro‘yobga chiqarish bo‘yicha tizimli mexanizmlar yetarlicha ishlamas, har yili mehnat bozoriga kirib kelayotgan yuz minglab bitiruvchilar, ularni barqaror ish o‘rinlari bilan ta’minlash ko‘rsatkichi pastligicha qolayotgandi. Demografik dividendni iqtisodiy rivojlanish omiliga aylantirish o‘rniga yoshlar bandligi davlat uchun jiddiy ijtimoiy-iqtisodiy bosim va xavotir manbaiga aylanib qolgan edi.

Mana shu omillar sabab, yoshlar orasidagi yashirin va ochiq ishsizlik eng og‘riqli nuqtalardan biri bo‘lib qoldi. Chunki oliy va o‘rta maxsus ta’lim muassasalari bitiruvchilarining diplom bo‘yicha ish topishi murakkab, kasbiy ko‘nikmalar real sektor talablariga mos kelmasdi. Natijada millionlab yosh fuqarolarimiz chet elga arzon ishchi kuchi sifatida chiqib ketishga majbur bo‘ldi. Bu esa ijtimoiy beqarorlik va oilaviy inqirozlarni keltirib chiqardi. Ustiga-ustak oliy ta’limga qamrov darajasi atigi 9-10 foiz atrofida saqlanib, yoshlar uchun ilmiy va kasbiy yuksalish imkoniyati juda past edi. Litsey va kollejlar tizimi ko‘p hollarda sifatli ta’lim va real kasb bera olmas, kvotalar cheklangani sababli yoshlarning aksariyati bilim olish va ijtimoiy maqomini ko‘tarish imkoniyatidan mahrum bo‘lib qolaverdi. Achinarli jihati, sohada korrupsiyaviy to‘siqlar va tizimning yopiqligi iqtidorli yoshlarning ijtimoiy faolligini so‘ndirib, pessimistik kayfiyatni kuchaytirayotgan edi.



Bu davrga kelib, yoshlar tadbirkorligi va startaplarini moliyaviy rag‘batlantirish, ularga imtiyozli kreditlar ajratish yoki yer berish borasida aniq huquqiy kafolatlar ham yo‘q edi. Bank tizimi yoshlar uchun garovsiz yoki yengillashtirilgan mexanizmlarni taklif qilmasdi. Bu esa tashabbuskor yoshlarning biznes g‘oyalari va iqtisodiy faoliyat subyekti sifatida shakllanishiga to‘sqinlik qilardi. Bundan tashqari, nogironligi bor, yetim va ota-ona qaramog‘idan mahrum, og‘ir hayotiy vaziyatga tushib qolgan yoki tarbiya muassasalaridan qaytgan yoshlarni reintegratsiya qilish bo‘yicha davlat darajasida aniq konseptual tizim yo‘q edi. Ijtimoiy yordam tarqoq va mavsumiy xususiyat kasb etib, yoshlarni mustaqil hayotga tayyorlash, turar joy va munosib ish bilan ta’minlashning kompleks huquqiy bazasi mavjud emasdi.

2016-yil kuzida O‘zbekistonda davlat boshqaruvining yangi bosqichi boshlandi. Mamlakatning yangi rahbariyati endi yoshlarni shunchaki tarbiyalanuvchi yoki ijtimoiy yordam oluvchi passiv obyekt emas, balki islohotlarning asosiy harakatlantiruvchi kuchi va strategik resursi sifatida tan oldi. Yangi siyosiy iroda va modernizatsiya strategiyasini amalga oshirish uchun yoshlarga qaratilgan munosabatni tubdan yangilash va buni qonun darajasida mustahkamlash eng birinchi galdagi ustuvor vazifaga aylandi. Qonunning qabul qilinishi yangi siyosiy davrda imzolangan eng birinchi muhim huquqiy hujjat bo‘lib, sohadagi barcha bo‘shliqni tizimlashtirishga xizmat qildi.

Agar oldingi hujjatda yoshlar masalasi ko‘proq umumiy shiorlar va qog‘ozdagi bayonotlar darajasida qolgan bo‘lsa, yangi qonun yosh avlodga munosabatni tubdan o‘zgartirib, ularni jamiyatning shunchaki qo‘llab-quvvatlanuvchi qatlami emas, balki davlatni harakatga keltiruvchi asosiy kuch va to‘laqonli ijtimoiy sherik sifatida e’tirof etdi. Qonunning eng muhim yuridik yangiliklaridan biri yoshlar masalasiga aniq huquqiy ta’rif berilgani bo‘ldi. Hujjat bilan 14 yoshga to‘lgan va 30 yoshdan oshmagan shaxslar rasman yosh fuqarolar toifasiga kiritildi, “yosh oila” va “yosh mutaxassis” kabi muhim tushunchalar qonun darajasida mustahkamlandi. Bu shunchaki chegara emas, balki davlat tomonidan beriladigan imtiyozlar, uy-joy subsidiyalari, ta’lim kreditlari va kasbiy qo‘llab-quvvatlash aynan kimlarga qaratilishi kerakligini ko‘rsatuvchi aniq dasturdir.

Avvallari yoshlar muammosi ko‘pincha bitta jamoat tashkilotining zimmasiga yuklab qo‘yilar, vazirlik va hokimliklar esa bunga ikkinchi darajali ish sifatida qarardi. Mazkur qonun yoshlar siyosatini amalga oshiruvchi davlat organlarining vakolatlarini ochiq-oydin taqsimlab berdi. Vazirlar Mahkamasidan tortib, mahalliy hokimliklargacha, ta’lim va sog‘liqni saqlashdan mehnat organlarigacha — barcha davlat idoralarining yoshlar oldidagi aniq majburiyatlari qonunan muhrlandi va bu sohada vertikal javobgarlik tizimi ishlab chiqildi. Qonunning ijtimoiy ahamiyati shunda ediki, u quruq va’dalar emas, balki yoshlarning kundalik hayotidagi eng dolzarb muammolarni hal etishga yo‘naltirildi. Unda bitiruvchilarni ish bilan ta’minlash, yoshlar tadbirkorligi va startaplariga imtiyozli kreditlar ajratish, uy-joyga muhtoj yosh oilalarni subsidiyalash mexanizmlari ilk bor mustahkam huquqiy kafolatlandi. Shuningdek, yetimlar, nogironligi bor va og‘ir ijtimoiy sharoitga tushib qolgan yoshlarni davlat qaramog‘iga olish, jamiyatga to‘siqlarsiz moslashtirish tizimi qonuniy asoslandi.

Qonun mamlakatimizning yoshlari hayotida o‘zgarishlarni boshlab berdi desak, xato bo‘lmaydi. Jumladan, aynan ushbu huquqiy hujjat qabul qilingach, sohadagi eng birinchi katta o‘zgarish boshqaruv tizimida yuz berdi. Ya’ni ilgari faqat jamoat tashkiloti bo‘lgan “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati tugatilib, avval O‘zbekiston yoshlar ittifoqi, 2020-yilda esa bevosita vazirlik maqomiga ega Yoshlar ishlari agentligi tashkil etildi. Bu bilan yoshlar masalasi shunchaki konsert yoki majlislar mavzusi bo‘lmay, vakolati, byudjeti va hukumat darajasida aniq javobgarligi bo‘lgan vertikal davlat siyosatiga aylandi. Mahallalarda esa 9000 dan ziyod yoshlar yetakchisi ta’sis etilib, muammolar quyida hal qilinmoqda.

Huquqiy hujjat qabul qilingan yillarda oliy ta’limga kirish haqiqiy muammo bo‘lib, maktab va kollej bitiruvchilarining atigi 9 foizi talaba bo‘lardi. Bugunga kelib bu ko‘rsatkich qariyb 40-42 foizga yetdi. Davlat va nodavlat OTMlar soni ikki yuzdan oshdi. Xorijning nufuzli universitetlari filiali ochildi. Qizlarning magistraturada o‘qishi uchun shartnoma puli davlat byudjetidan to‘lab berilishi, xotin-qizlarga ajratilgan alohida davlat grantlari minglab oilalar hayotini tubdan o‘zgartirdi. “El-yurt umidi” jamg‘armasi tubdan qayta tashkil etilishi tufayli minglab o‘zbekistonlik iqtidorli yoshlar Oksford, Kembrij, Garvard, Kolumbiya kabi nufuzli oliygohlarga to‘liq davlat granti asosida o‘qishga yuborildi. Yoshlarning xalqaro til va kasbiy sertifikatlari (IELTS, TOEFL, SAT va boshqalar) uchun to‘lagan imtihon xarajati agentlik tomonidan to‘liq qoplab berila boshlandi.

Ilgari ishsiz yoshlar aniq hisobga olinmas, muammolar umumiy hisobotlar ortida ko‘milib ketar edi. Qonun belgilab bergan ijtimoiy kafolatlar zamirida “Yoshlar daftari” tizimi yaratildi. Mazkur mexanizm orqali millionlab ehtiyojmand yigit-qizlarga tikuv mashinalari, payvandlash va kompyuter uskunalari subsidiya asosida bepul berildi. Davolanish xarajati qoplandi va kontrakt puli to‘lab berildi. “Bir million dasturchi” kabi loyihalar orqali chekka qishloqlardagi minglab yoshlar AT sohasiga kirib kelib, masofadan turib daromad topa boshladi. Qonunning eng sezilarli natijalaridan biri yoshlarning biznesga erkin kirib kelishi bo‘ldi. “Yoshlar — kelajagimiz” jamg‘armasi va mikromoliya tashkilotlari orqali minglab yosh tadbirkorlarga imtiyozli kreditlar ajratildi. Qishloq joylarda esa ishsiz yoshlarga dehqonchilik qilishi uchun 10 sotixdan 1 gektargacha yer maydoni uzoq muddatga ajratib berildi. Bu choralar tufayli yoshlar ishli bo‘lish barobarida tengdoshlari uchun ham yangi ish o‘rinlari ochdi.

Yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo‘yicha yo‘lga qo‘yilgan “Besh tashabbus olimpiadasi” umummilliy darajadagi harakatga aylanib, ko‘chadan tortib, respublika bosqichigacha millionlab yoshlarni madaniyat, kitobxonlik, san’at va milliy sport turlari atrofida birlashtirdi. Maktablar va mahallalarda “Zakovat” intellektual o‘yinlari keng yoyildi. “Yosh kitobxon” tanlovi g‘oliblariga Prezident sovg‘asi topshirilishi bilim olishni jamiyatda nufuzli va qadrli trendga aylantirdi. Yoshlar sportda va ilmda jahon sahnasida O‘zbekiston nomini yuqori pog‘onalarga olib chiqdi. Olimpiya o‘yinlarida tarixdagi eng yaxshi natijalar qayd etildi. Eng asosiysi, yoshlar davlat boshqaruvi va qonun ijodkorligida ishtirok etmoqda. Parlament negizida Yoshlar parlamenti tuzildi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga yoshlar huquqlari bo‘yicha alohida moddalar kiritildi hamda yosh rahbar kadrlar vazir o‘rinbosarlari, hokim o‘rinbosarlari va deputatlik lavozimlariga ishonch bilan tayinlana boshladi.

Mamlakatimiz mustaqilligining so‘nggi o‘n yilligi yurtdoshlarimiz hayotida juda katta o‘zgarishlar davri bo‘ldi. Xalqimiz milliy taraqqiyotning yangi bosqichiga qadam qo‘ydi. Bu bosqichning mantig‘i yangi davrga munosib o‘zgarishlar, mukammal qonunlar va islohotlarni talab qiladi. Shuningdek, zamon talabi bo‘lgan globallashuv va raqamlashuv ham qonunlarimizni yanada takomillashtirish, zamon shiddatiga moslashuv zaruratini talab qilmoqda. Masalan, yosh mutaxassislarni ishga olish yoki huquqlarini himoya qilish ko‘p jihatdan ish beruvchining ixtiyoriga tashlab qo‘yilgan.

Dunyo va jamiyat keskin o‘zgardi, ya’ni sun’iy intellekt, raqamli iqtisodiyot, kiberxavfsizlik va yoshlarning ruhiy salomatligi kabi bugungi avlod duch kelayotgan yangi masalalarni qonunchiligimizda aks ettirish zarur.

Bugun dunyoda insoniyatning o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligi ham ortib borishi 14 dan 30 yoshgacha bo‘lgan chegarani ko‘plab rivojlangan davlatlardagidek (35 yoshgacha) zamonaviy demografik o‘zgarishlar bilan qayta ko‘rib chiqish zaruratini vujudga keltirmoqda. Yoshlar bilan bog‘liq qonunchiligimizning amaliy ijro mexanizmlarida, xususan, “Yoshlar daftari” va mahalliy dasturlarda yordamni noto‘g‘ri tushunish muammosi mavjud. Aksariyat hollarda ish yoshlarga bepul uskuna yoki bir martalik moddiy yordam berish bilan cheklanib qolyapti. Ularning mustaqil oyoqqa turishini ta’minlovchi monitoring tizimi oqsamoqda. Masalan, subsidiyaga tikuv mashinasi yoki monoblok olgan yoshlar bir necha oydan so‘ng uni sotib yuborishi yoki undan foydalanmasligi holatlari uchrab turadi. Bu esa yoshlarda muammolarni faqat davlat yordami bilan hal qilish kayfiyatini ham kuchaytirib, ularni haqiqiy bozor raqobatiga tayyorlashga xalal bermoqda.

Har bir mahallada yoshlar yetakchisi lavozimining joriy etilishi juda ilg‘or tashabbus bo‘lgan edi, biroq amaliyotda ularning faoliyati byurokratiya va qog‘ozbozlikka ko‘milib qoldi. Yetakchilar yoshlar bilan jonli muloqot qilish va ularning muammolarini hal etish o‘rniga kun bo‘yi turli platformalarda hisobot to‘ldirish, mahalla raisi yoki hokimlikning boshqa yumushlarini bajarish bilan band bo‘lib qolmoqda. Natijada mahalladagi og‘ir toifaga mansub qatlam — chet elda ishlab yurgan migrantlar, jazoni o‘tab qaytganlar yoki real yordamga muhtoj, lekin murojaat qilmaydigan yoshlar nazardan chetda qolib ketmoqda. Ishlar esa ko‘pincha chiroyli raqamlar uchun qilinmoqda. Bu muammolarning ham qonuniy yechimini hal qilish lozim.

Oliygohlarga qamrov keskin oshganiga qaramay, ta’lim sifati va real iqtisodiyot ehtiyoji o‘rtasidagi jarlik saqlanib qolmoqda. Yiliga yuz minglab yoshlar qo‘liga diplom olayotgan bo‘lsa-da, korxonalar va xususiy sektorda malakali kadrlar taqchilligi davom etmoqda. Diplomli mutaxassislarning kuryerlik, taksichilik qilishi yoki mardikor bozoriga chiqishi odatiy holga aylandi. Qonunlarimizda nazarda tutilgan “kasbga yo‘naltirish” va “bitiruvchilarni kafolatli ish bilan ta’minlash” mexanizmlari ta’lim muassasalari bilan ish beruvchilar o‘rtasida mustahkam ko‘prik bo‘la olmayapti. Bu esa millionlab yoshlarni hamon tashqi mehnat migratsiyasiga suyanishga majbur qilmoqda.

Aslida, har bir qonun hujjati, har bir qaror hamda unda belgilangan normalar va vazifalar qog‘ozdagi bandlardan chiqib, to‘liq kuchga kirishi millionlab yigit-qizlarning hayotini tubdan o‘zgartira oladi. Ular shunchaki “kelajak umidi” bo‘lishdan to‘xtab, bugunning haqiqiy harakatlantiruvchi kuchiga aylanadi. Ta’lim tizimi mehnat bozoriga hamohang ishlab, diplomsizlik yoki tajribasizlik yoshlar yo‘lidagi to‘siq bo‘lmay qoladi. Startaplar, imtiyozli kreditlar va ijtimoiy liftlar har bir iste’dod egasiga o‘z yurtida qadr topish imkonini beradi. Yosh oilalarning uy-joy tashvishidan qutulishi, har bir iqtidorning davlat himoyasini his qilishi, yosh oilalardagi ajralishlarning kamayishi ularning ertangi kunga ishonchini mustahkamlaydi. Kelajagini xorijdan emas, vatanidan qidiradigan yangi, erkin fikrli avlod shakllanadi.



PEDAGOGLAR FARZANDLARI UCHUN 30 FOIZLI CHEGIRMA QO‘LLANADI

Oliy ta’lim

Vazirlar Mahkamasining joriy yil 17-sentabrdagi qaroriga ko‘ra, 2026/2027-o‘quv yilidan boshlab har yili davlat oliy ta’lim tashkilotlariga o‘qishga kirgan hamda tahsil olayotgan pedagoglarning farzandlari uchun to‘lov-kontrakt summasiga 30 foiz miqdorida chegirma joriy etiladi.

Bu tashabbusni pedagoglarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan choralarning mantiqiy davomi sifatida ko‘rish mumkin. Chunki pedagogning mehnati nafaqat ta’lim berish, balki yosh avlodning bilim va dunyoqarashini shakllantirish, mamlakatning intellektual salohiyatini yuksaltirish bilan bevosita bog‘liq.

Shu nuqtayi nazardan, pedagoglarni qo‘llab-quvvatlash faqat ish joyidagi mehnat sharoitlari yoki ish haqi bilan cheklanib qolmasligi, balki oilaviy va ijtimoiy ehtiyojlari ham hisobga olinishi muhim. Bu esa pedagoglarning ijtimoiy himoyasini yanada kuchaytirish, ular uchun qo‘shimcha imkoniyatlar yaratish va oilada moliyaviy yukni kamaytirishga xizmat qiladi.

— Bu imtiyozda pedagogning farzandi davlat oliy ta’lim tashkiloti bakalavriatida kunduzgi ta’lim shaklida, to‘lov-kontrakt asosida tahsil olayotgan bo‘lishi talab etiladi, — deydi oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining axborot siyosati bo‘yicha maslahatchisi Nazokat Abduqunduzova. — Ota-onaning ikkalasi ham pedagog bo‘lsa, bu holatda imtiyoz ikki karra oshirilmaydi. Bir farzand uchun belgilangan 30 foizli chegirma qo‘llanadi.

Biroq pedagogning bir necha farzandi yuqoridagi shartlar asosida davlat OTMda tahsil olayotgan bo‘lsa, har bir farzand uchun chegirma alohida bo‘ladi. Bu esa pedagog oilasi uchun nafaqat bir, balki bir necha farzandning ta’lim xarajatlarini yengillashtirish imkonini beradi.

Imtiyozni belgilashda pedagogning ish staji yoki malaka toifasi bo‘yicha alohida talablar nazarda tutilmagan. Ya’ni pedagogning sohada necha yil ishlagani, birinchi yoki oliy malaka toifasiga egaligi kabi mezonlar ushbu chegirmadan foydalanish uchun alohida shart sifatida kiritilmagan.

Asosiy mezon ota yoki onaning belgilangan tartibda pedagog maqomiga ega bo‘lishi, farzandining esa qarorda ko‘rsatilgan shartlar asosida davlat OTMda tahsil olayotganidir. Shu yerda bir muhim jihatni ham alohida ta’kidlash kerak, mazkur imtiyoz qo‘shimcha yoki tabaqalashtirilgan (oshirilgan) kontrakt summasiga emas, bazaviy to‘lov-kontrakt miqdoriga nisbatan qo‘llanadi.

Qarorga ko‘ra, imtiyoz faqat bakalavriatning kunduzgi ta’lim shaklida tahsil olayotganlarga tatbiq etiladi. Sirtqi, kechki va masofaviy ta’lim shakllariga tegishli emas.

Chegirma oliy harbiy va harbiylashtirilgan ta’lim tashkilotlarida, O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan xorijiy oliy ta’lim tashkilotlari va ularning filiallarida, qo‘shimcha va tabaqalashtirilgan to‘lov-kontrakt asosida, xorijiy hamkor OTMlarning qo‘shma ta’lim dasturlari asosida va fakultetlarida, nodavlat oliy ta’lim tashkilotlarida tahsil olayotganlarga nisbatan ham qo‘llanilmaydi.

Mazkur imtiyoz barcha oliy ta’lim tashkilotlari yoki barcha turdagi kontraktlarga birdek tatbiq etilmaydi. Qarorda imtiyozning amal qilish doirasi aniq belgilab qo‘yilgan.

Yana bir muhim jihat — chegirmani olish uchun alohida qog‘ozbozlikni minimallashtirishga qaratilgan elektron tartib joriy etilgan. Pedagoglar shartnoma olish uchun kontrakt.edu.uz tizimi orqali ariza yuboradi. Arizani ko‘rib chiqish jarayonida ariza beruvchining pedagog farzandi ekani “Raqamli hukumat” tizimining idoralararo integratsiyalashuv platformasi orqali tasdiqlanishi kerak.

Arizalar mas’ul tashkilot tomonidan 2 ish kuni mobaynida ko‘rib chiqiladi. Chegirma o‘quv yili uchun bir marotaba qo‘llaniladi.

Shu bilan birga, imtiyoz pedagogning ish joyiga nisbatan ham muayyan doirada amal qiladi. Ya’ni qarorda nazarda tutilgan pedagog maqomiga ega shaxslarning farzandlari ushbu huquqdan belgilangan shartlar asosida foydalanishi mumkin. Bu yerda asosiy e’tibor pedagogning lavozimi yoki stajiga emas, uning pedagog sifatidagi huquqiy maqomiga qaratiladi.

— Agar pedagogning farzandi oliy ta’limda tahsil olayotgan davrda uning otasi yoki onasi pedagog toifasidan chiqarilsa, chegirma keyingi o‘quv yilidan boshlab qo‘llanmaydi, — deydi Nazokat Abduqunduzova. — Ya’ni pedagog maqomi imtiyozni saqlab qolishning muhim sharti hisoblanadi. Mazkur imtiyoz ta’limning qaysi bo‘g‘inida mehnat qilayotganidan qat’i nazar, belgilangan talablarga javob beruvchi pedagoglarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan. Ya’ni maktabgacha ta’lim, umumiy o‘rta ta’lim, kasbiy ta’lim va boshqa ta’lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan pedagoglar uchun asosiy mezon bir xil — pedagog maqomiga ega bo‘lish.



Oliy ta’lim olish har bir oila uchun katta maqsad, shu bilan birga, muayyan moliyaviy mas’uliyat hamdir. Ayniqsa, bir oilada bir necha farzand talaba bo‘lsa, kontrakt to‘lovlari oila byudjetiga sezilarli yuk bo‘lishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan, 30 foizli chegirma pedagoglar uchun sezilarli moliyaviy yengillik yaratishi kutilmoqda.

Bu imtiyozning yana bir muhim jihati — davlat pedagogning mehnatini uning oilasi bilan bog‘liq ijtimoiy ehtiyojlar orqali ham qadrlayotganini ko‘rsatadi. Pedagog yosh avlodga ta’lim beradi, boshqalarning farzandlari kelajagi uchun mas’uliyat oladi. Uning o‘z farzandi ta’limida ham davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi ana shu mehnatga bo‘lgan e’tiborning amaliy ifodasidir.

Pedagog uchun moddiy qo‘llab-quvvatlashning o‘zi ham muhim. Ammo inson mehnati qadrlanayotganini his qilishi, oilasi va farzandlari manfaatlari ham e’tiborda ekanini ko‘rishi katta ma’naviy ahamiyatga ega.

Risolat MADIYEVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

2026-yil 25-sentabr, 199-son

YANGI O‘ZBEKISTON
www.yuz.uz
yuz.uznews
yuz.uz_news
yuz.uz_news

Dunyoda turli qonuniyat asosida tuzilgan alifbolar mavjud. Lekin ideal alifbo, eng avvalo, bir muhim qonuniyatga tayanadi: bir tovush — bir harf. Bu tamoyil shunchaki nazariy qoida emas. U yozuv tizimining soddaligi, izchilligi va barqarorligini ta’minlaydi.



O‘ o‘ → Ö ö
G‘ g‘ → Ğ ğ
Sh sh → Ş ş
Ch ch → Ç ç



ALIFBO MUKAMMALLIGI — ILMIY ZARURAT VA ZAMON TALABI

Mulohaza

Millatlar tarixida shunday qarorlar bo‘ladiki, ularning ahamiyati bir kun yoki bir yil bilan emas, balki keyingi o‘nlab yillar, hatto asrlar taqdiri bilan o‘lchanadi. Shubhasiz, milliy alifbo masalasi ham shular jumlasidan. Chunki alifbo shunchaki harflar yig‘indisi emas, u millatning yozma tafakkuri, ilmiy salohiyati va raqamli kelajagini o‘zaro bog‘lab turuvchi mustahkam poydevor.



Inomjon AZIMOV,
Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazi direktori, filologiya fanlari doktori, professor



Bugun insoniyat raqamli sivilizatsiyaning yangi bosqichiga qadam qo‘ymoqda. Sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar, elektron davlat boshqaruvi, avtomatik tarjima, nutqni tanish va raqamli ta’lim kabi texnologiyalar jadal rivojlanayotgan bir paytda har bir til zamon bilan hamnafas bo‘lishi, uning yozuv tizimi esa sodda, izchil va texnologik jihatdan barqarorlik kasb etishi zarur. Shu ma’noda, alifboni takomillashtirish faqat bugunning emas, ertangi kunning ham ehtiyojidir.

Joriy yil 10-sentabr kuni Oliy Majlis Senati tomonidan qabul qilingan alifbo loyihasi qisqa muddatda paydo bo‘lgan emas. U qariyb o‘n yil avval mamlakatimizning taniqli olimlari ishtirokida tuzilgan ishchi guruhning izchil izlanishlari, o‘zaro bahs-munozaralar va ilmiy muhokamalar mahsulidir. Bu jarayonda tilshunos olimlar bilan bir qatorda pedagoglar, axborot texnologiyalari mutaxassislari, huquqshunoslar, noshirlar, dasturchilar, jurnalistlar va boshqa sohalar vakillari faol ishtirok etdi.

Shu yillarda ishchi guruh tomonidan alifboning beshta turli loyihasi ishlab chiqildi va jamoatchilik muhokamasiga qo‘yildi. Xususan, 2021-yil 16-mart kuni takomillashtirilgan alifbo loyihasi rasman e’lon qilinib, mamlakat miqyosida keng muhokama qilingan edi. Olimlar, mutaxassislar va fuqarolar bildirgan yuzlab taklif va mulohazalar sinchiklab o‘rganildi. Har bir yechimning ilmiy, amaliy va texnik jihatlari tahlil qilindi. Natijada ilmiy bahslardan o‘tgan, turli qarashlarni o‘zida uyg‘unlashtirgan yakuniy loyiha shakllantirildi.

Eng muhimi, taklif etilayotgan alifbo amaldagi yozuv tizimida yillar davomida saqlanib kelayotgan asosiy imloviy va texnik muammolarni bartaraf etishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, yozuvni sun’iy ravishda murakkablashtirmaydi. U ta’lim tizimida ham, davlat idoralari faoliyatida ham, noshirlik faoliyatida ham, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida ham oson qo‘llanadigan, izchil va zamonaviy yechimni taklif etadi. Boshqacha aytganda, bu loyiha harflarni shunchaki almashtirish emas, balki o‘zbek yozuvini yaxlit tizim sifatida takomillashtirishga qaratilgan.

Ayni paytda ijtimoiy tarmoqlar va turli axborot maydonlarida alifboga kiritilayotgan o‘zgarishlar yuzasidan turli fikrlar bildirilmoqda. Bu — tabiiy hol. Chunki har qanday katta islohot turli savollarni ham, jiddiy muhokamalarni ham keltirib chiqaradi. Biroq masalaning mohiyatini chuqur anglamay, yuzaki bildirilayotgan ayrim mulohazalarga ham ko‘zimiz tushmoqda. Alifbo esa hissiyot yoki shaxsiy did bilan emas, balki tilning fonetik tamoyillari, grafika, axborot texnologiyalari asosida baholanadigan ilmiy tizimdir.

Shu bois, bugun “qaysi harf chiroyliroq?” degan savol emas, “qaysi alifbo o‘zbek tilining bugungi va ertangi ehtiyojlariga ko‘proq javob beradi?” degan savol va uning javobi biz uchun muhim bo‘lishi lozim. Aynan shu savolga ilmiy dalillar, tarixiy tajriba va amaliy ehtiyojlar asosida javob izlashga harakat qilamiz.

Yaxlit va mantiqiy tizim

Amaldagi alifbo haqida so‘z ketganda, savol “Bugungi o‘zbek alifbosi zamonaviy til, ta’lim va raqamli texnologiyalar talablariga to‘liq javob bera olyaptimi?” tarzida qo‘yilishi lozim.

Agar savolga ijobiy javob bera olganimizda alifboni takomillashtirish haqida o‘n yillab bahslar bo‘lmas edi. Mavjud yozuv tizimi barcha sohada muammosiz ishlaganida, tilshunoslar, dasturchilar, pedagoglar va boshqa mutaxassislar bu masala ustida yillar davomida bosh qotirmagan bo‘lardi.

Demak, bugungi muhokama markazida muayyan harf emas, balki alifboning ichki tizimi turibdi.

Dunyoda turli qonuniyat asosida tuzilgan alifbolar mavjud. Lekin ideal alifbo, eng avvalo, bir muhim qonuniyatga tayanadi: bir tovush — bir harf. Bu tamoyil shunchaki nazariy qoida emas. U yozuv tizimining soddaligi, izchilligi va barqarorligini ta’minlaydi. Bola savod chiqarayotganda ham, tilshunos lug‘at tuzayotganda ham, dasturchi matnni qayta ishlayotganda ham aynan shu tamoyil yengillik yaratadi.

Amaldagi o‘zbek alifbosida esa mazkur tamoyil to‘liq ta’minlanmagan: ayrim harflar ikki belgi orqali ifodalanadi. Qo‘sh belgili bu harflarni to‘g‘ri yozish esa muammo ekani bor haqiqat. Bu holat inson uchun ham, kompyuter uchun ham turli qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda. Shuning uchun taklif etilayotgan o‘zgarishlardan bosh maqsad ayrim harflarni “chiroyliroq” qilish emas, balki alifboni yaxlit va mantiqiy tizimga aylantirishdir.

Nega O‘ va G‘ o‘rniga Ö va Ğ taklif qilinmoqda?

Bugun eng ko‘p muhokama qilinayotgan, ta’bir joiz bo‘lsa, alifbo islohotiga asosiy sabab bo‘lgan bosh muammo ham O‘ va G‘ harflaridir. Bir qarashda ular oddiy, kichik ko‘rinadi. Lekin masala ham aynan ana shunda — kichik belgi katta muammolarga sabab bo‘lmoqda.

Amalda O‘ va G‘ harflarida qo‘llanadigan belgi yagona emas. Bir odam to‘g‘ri apostrofdan foydalanadi, boshqasi teskari belgini qo‘yadi, yana biri qiya belgini ishlatadi. Tashqi ko‘rinishi yaqin bo‘lgan bu belgilar kompyuter uchun mutlaqo boshqa-boshqa kodlardir.

Natijada bir xil so‘z turli ko‘rinishda yozilib ketadi. Elektron qidiruv tizimi ayrim matnlarni topmaydi. Davlat axborot tizimlarida bir fuqaroning familiyasi bir nechta ko‘rinishda qayd etilishi mumkin. Elektron hujjatlar, ma’lumotlar bazalari, avtomatik saralash va raqamli xizmatlarda turli nomuvofiqliklar yuzaga keladi.

E’tiborli jihati shundaki, bu muammo imlo qoidasini o‘zgartirish bilan hal bo‘lmaydi. Chunki muammo tilda emas, belgining texnik tabiatida. Kompyuter inson ko‘zi kabi ko‘rmaydi. U har bir belgini alohida kod sifatida qabul qiladi.

TAKLIF ETILAYOTGAN ALIFBO LOYIHASINI MUKAMMALLIKNING SO‘NGGI NUQTASI DEB AYTISH TO‘G‘RI BO‘LMAYDI. ZERO, DUNYODA MUTLAQO MUKAMMAL ALIFBONING O‘ZI YO‘Q, AMMO HAR QANDAY ISLOHOTNING QADRI UNING MAVJUD MUAMMOLARNI QAY DARAJADA HAL QILA OLISHI BILAN BAHOLANADI.



Alifbo loyihasiga kiritilgan Ö va Ğ esa mustaqil harflardir. Ular yagona yunikod kodiga ega. Barcha zamonaviy operatsion tizimlar, veb-platformalar va dasturiy muhitlar tomonidan bir xil qabul qilinadi. Bu esa yillar davomida yig‘ilib kelgan texnik muammolarni bartaraf etadi. Yana bir muhim jihat shuki, taklif qilinayotgan harflar biz uchun begona emas, bu harflar jadid bobolarimiz tomonidan ishlab chiqilgan, 1929-1940-yillarda amalda bo‘lgan. Shu bilan birga, 1993-yilda qabul qilingan alifbolarda ham mavjud. Demak, bu o‘rinda tarixiy tajriba ham inobatga olingan.

Ba’zan “Axir biz O‘ va G‘ ga o‘rganib qolganmiz-ku”, degan fikr ham bildirilmoqda. Ayni paytda ushbu fikr egalarining aksariyati bu harflarni to‘g‘ri yozolmasligini, ularni odatda tutuq yo boshqa belgi bilan yozib ketishini va buni jiddiy xato deb hisoblamasligini ham e’tirof etmoqda. Muammoli harflarni to‘g‘ri yoza olmasligini e’tirof etgan holda ularni himoya qilmoq savodxonlikka ham, mantiqqa ham zid holat. Muammo bormi, uni hal etish zarur, xaspo‘shlash esa faqat ziyonga xizmat qiladi.

Nega Sh va Ch ham o‘zgarmoqda?

Ayrimlar “Faqat O‘ va G‘ ni o‘zgartirish kifoya, Sh hamda Ch ni esa qoldirish mumkin”, degan fikrni bildirmoqda. Bir qarashda bu taklif imlo islohotini yengil o‘tkazishga xizmat qiladigan yechim kabi ko‘rinadi. Ammo ilmiy-amaliy nuqtayi nazardan bu to‘g‘ri bo‘lmaydi: aynan shu chala tuzatish yana qachondir alifboni takomillashtirish masalasini kun tartibiga olib chiqishi mumkin.

Zero, bugun Sh hamda Ch harflari faqat nazariy emas, amaliy muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Masalan, lug‘atlarda so‘zlarni alifbo tartibida joylashtirish, avtomatik saralash, morfologik tahlil, matnni raqamli qayta ishlash, qisqartmalar yasash kabi jarayonlarda Sh va Ch alohida emas, ikkita mustaqil harf sifatida qabul qilinadi. Bu esa kompyuter dasturlari uchun qo‘shimcha algoritmlar talab qiladi. Is’hoq, as’hob kabi so‘zlarda esa yo‘q joydan istisno qoidalarini joriy etib, vazifasiga zid ravishda tutuq belgisini qo‘llashimizga to‘g‘ri kelmoqda. Jadid namoyandalaridan Ibrohim Tohiriy imlo qoidalarida istisnolarning bo‘lishi uning to‘g‘riligini shubha ostiga qo‘yadi degan edi.

Taklif etilayotgan Ş va Ç harflari qo‘llanganda esa mazkur tovushlar mustaqil harf sifatida ifodalanadi. Natijada inson uchun ham, kompyuter uchun ham yagona va izchil tizim vujudga keladi.

Nega aynan Ö, Ğ, Ş va Ç tanlandi?

“Nima uchun boshqa belgi emas, aynan shu harflar?” degan savol ham bo‘lishi tabiiy. Bu yerda tanlov tashqi ko‘rinishga emas, ilmiy va amaliy mezonlarga asoslangan.

Birinchidan, mazkur harflarning har biri bitta mustaqil grafemadan iborat. Demak, ular “bir tovush — bir harf” tamoyiliga to‘liq mos keladi.

Ikkinchidan, bu harflar xalqaro raqamli standartlarda mustahkam o‘rin egallagan. Ular shakldoshlari orasida keng tarqalgan bo‘lib, alohida yunikod kodlari mavjud va barcha zamonaviy axborot tizimi tomonidan qo‘llab-quvvatlanadi.

Uchinchidan, mazkur grafemalar turkiy tillar yozuvida keng qo‘llanib kelayotgani hamda avval ham ikki marta alifbomiz tarkibidan o‘rin olgani bois, ular o‘zbek yozuvi uchun ham mutlaqo tabiiy.

Shuning uchun bu tanlov tasodifiy emas, balki tilshunoslik, axborot texnologiyalari va xalqaro tajribaning kesishgan nuqtasida qabul qilingan yechimdir.

Nega ng tarkibdan chiqarildi?

Muhokamalarda eng ko‘p uchrayotgan savollardan yana biri ng haqida. Avvalo, Ng o‘zbek tilida cheklangan fonetik muhitda uchraydi. U hech qachon so‘z boshida kelmaydi. Qolaversa, ming yil davomida arab alifbosida ham, keyin kirill alifbosida ham va nihoyat, amaldagi lotin alifbosida ham n va g harflari orqali ifodalangan. Ya’ni bu tovushning ikki harf bilan ifodalanishida azaliy ko‘nikma mavjud. Eng muhim jihat shuki, boshqa harfiy birikmalardan farqli ng birikmasi amaliyotda hech qanday muammoga sabab bo‘lmayapti. Aksincha, uni yaxlit harfga aylantirish amaliyotda yangi muammolarni yuzaga keltiradi. Jumladan, son-sanoqsiz adabiyotlarni yangilangan alifboga o‘girishda elektron dasturlar ko‘ngil, singil, dengiz so‘zlaridagi ng tovushi bilan birga menga, shakllangan, shtanga kabi so‘zlardagi bir-biriga aloqasiz n va g harflarini ham yaxlit harfga aylantirib yuboradi. Shuningdek, juda ko‘p so‘zlarni yozishda ikkilanish paydo bo‘lib, savodxonlikka ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Nega tutuq belgisidan voz kechilmadi?

Tutuq belgisiga nisbatan ham turli fikrlar bildirilmoqda. Lekin u o‘zbek tilida muayyan vazifani bajaradi. Ayrim hollarda tovushlarni ajratish, talaffuzni aniqlash va ma’noni farqlashda uning ahamiyati saqlanib qolmoqda.

Shuning uchun ilmiy yondashuv uni butunlay yo‘qotish emas, balki qo‘llanish doirasini aniq belgilashdan iborat. Bu, bir jihatdan, yozuvni soddalashtirsa, ikkinchi tomondan, tilning tabiiy xususiyatlarini ham asrab qoladi. Shu ma’noda, tutuq belgisining qo‘llanish doirasini takomillashtiriladigan imlo qoidalarida alohida ko‘rib chiqish mumkin.

Muhokamalarda bildirilayotgan takliflardan biri — unlilar sonini 9 taga yetkazish masalasi. Bu hozirgi holatda amalga oshishi qiyin bo‘lgan masala. Chunki bu taklif qabul qilinsa, alifboda jiddiy inqilobiy o‘zgarish yuz beradi. Unlilarning qattiq-yumshoqlik bo‘yicha juftlanishi o‘tgan asrlarda bo‘lgan esa-da, buni bugun hatto ayrim filologlar ham ajrata olmaydi. Hozirgi alifbo islohoti esa muammolar yaratishga emas, ularni hal etishga qaratilgan.

Alifbo islohoti haqida fikr yuritar ekanmiz, bunday jiddiy va ilmiy masalaga hissiyot, odat yoki shaxsiy did nuqtayi nazaridan emas, balki ilm-fan, milliy manfaat va kelajak ehtiyojlari nuqtayi nazaridan yondashish zarur.

Maqsad — izchil yechim topish

Taklif etilayotgan alifbo loyihasini mukammallikning so‘nggi nuqtasi deb aytish to‘g‘ri bo‘lmaydi. Zero, dunyoda mutlaqo mukammal alifboning o‘zi yo‘q, ammo har qanday islohotning qadri uning mavjud muammolarni qay darajada hal qila olishi bilan baholanadi. Ana shu nuqtayi nazardan qaraganda, mazkur loyiha amaldagi alifboda yillar davomida kuzatib kelingan qator lingvistik, imloviy va texnik muammolarga izchil yechim taklif etadi.

Bugun o‘zbek tili oldida yangi vazifalar turibdi. U nafaqat kundalik muloqot va badiiy adabiyot tili, balki zamonaviy ilm-fan, raqamli texnologiyalar, sun’iy intellekt, elektron davlat boshqaruvi va xalqaro axborot almashinuvining ham to‘laqonli vositasiga aylanishi kerak. Bu maqsadga erishish uchun tilning ichki qonuniyatlariga tayangan, izchil va texnologik jihatdan barqaror yozuv tizimi zarur. Takomillashtirilayotgan alifbo aynan shu ehtiyojlarga javob beradi.

Shubhasiz, har qanday yangilik dastlab savollar va turli munosabatlarni keltirib chiqaradi. Bu tabiiy jarayon, biroq tarixiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, ilmiy asoslangan qarorlarning haqiqiy qiymati vaqt o‘tishi bilan yanada yaqqol namoyon bo‘ladi. Kecha bahsli tuyulgan ko‘plab yangiliklar bugun hayotimizning ajralmas qismiga aylanganidek, bu islohotning ijobiy samarasi ham yillar davomida o‘zini namoyon etadi.

Shu bois, bizning vazifamiz har qanday islohotni, jumladan, milliy alifboga kiritilayotgan tuzatishlarni dalil va taxmin emas, ilm bilan baholashdan iborat. Chunki tilning kelajagi haqida qabul qilingan har bir oqilona qaror, avvalo, millatning kelajagiga qo‘yilgan sarmoyadir.

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalari tahririyati” DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas’ul.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — G-746.
29609 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Azizbek Yusupov
Musahhih: Nasiba Abdullayeva
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

Qabulxona: (71) 233-56-33
E’lonlar bo‘limi: (71) 233-70-98
E-mail: info@yuz.uz
Веб-сайт: www.yuz.uz: (71) 233-47-05
Devonxona va ishonch telefoni: (71) 233-56-60